Mazkur holat huquqiy targ'ibot tushunchasi, uning huquqiy tabiati, mazmuni va funksiyalarini zamonaviy huquqshunoslik nuqtayi nazaridan qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Ayniqsa, adliya organlari va muassasalarining mazkur sohadagi institutsional o'rnini huquqiy siyosat, davlat boshqaruvi va huquqiy kommunikatsiya nazariyalari bilan uzviy bog'liq holda tadqiq etish ilmiy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Biz mazkur ilmiy maqolada bir qator ilmiy mulohazalar o'tkazib, sohaga oid ilmiy yangiliklar va takliflar ishlab chiqishga harakat qildik. Xususan, adliya organlari va muassasalarining huquqiy targ'ibot faoliyatiga huquqiy kommunikatsiya nazariyasi nuqtayi nazaridan mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi, huquqiy targ'ibotning huquqiy tabiati davlat boshqaruvining mustaqil institutsional mexanizmi sifatida asoslantirildi, huquqiy targ'ibotning an'anaviy, raqamli va manzilli shakllari o'zaro bog'liq yaxlit tizim sifatida ilmiy tasniflandi, huquqiy targ'ibot samaradorligini baholashning huquqiy va tashkiliy mezonlari bo'yicha mualliflik yondashuvlari taklif etildi, shu bilan birga xorijiy davlatlar tajribasini milliy qonunchilik bilan qiyosiy tahlil qilish asosida adliya organlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Huquqiy targ'ibot huquqshunoslik fanida huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy tarbiya hamda huquqiy siyosat institutlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab ijtimoiy-huquqiy kategoriya hisoblanadi. Mazkur tushunchaning mazmunini aniqlash nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki huquqiy targ'ibotning mohiyati to'g'ri belgilanishi adliya organlari vakolatlari, faoliyat shakllari va samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqishga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Huquqiy adabiyotlarda ushbu tushunchaga turlicha yondashuvlar mavjud. Jumladan, **S.S. Alekseyev** huquqiy targ'ibotni huquqiy madaniyatni shakllantirishning muhim vositasi sifatida baholab, uning asosiy vazifasi fuqarolarda qonunga hurmat hissini shakllantirishdan iborat ekanligini ta'kidlaydi [3]. Mazkur yondashuv huquqiy targ'ibotning tarbiyaviy mohiyatini yoritib bersa-da, unda davlat organlari va jamiyat o'rtasidagi o'zaro huquqiy muloqot yetarli darajada ochib berilmagan. **V.N. Kudryavsev** esa huquqiy targ'ibotni, avvalo, huquqbuzarliklarning oldini olish vositasi sifatida baholaydi [4]. Uning fikricha, huquqiy bilimlarning keng targ'ib qilinishi shaxslarning huquqqa xilof xatti-harakatlar sodir etish ehtimolini kamaytiradi. Ushbu qarash huquqiy targ'ibotning profilaktik funksiyasini asoslab bersa-da, uning davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishdagi strategik o'rni hamda huquqiy kommunikatsiya vositasi sifatidagi mohiyatini to'liq qamrab olmaydi. Fransuz huquqshunosi **Jan Carbonnier** huquqning ijtimoiy tabiatidan kelib chiqib, huquqiy targ'ibotni qonunning jamiyat hayotiga singdirilishi mexanizmi sifatida talqin qiladi [5]. Mazkur yondashuv qonunning samaradorligi faqat normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi bilan emas, balki ularning fuqarolar tomonidan anglanishi va ongli ravishda qabul qilinishi bilan belgilanishini ko'rsatadi. Shu jihatdan Carbonnierning qarashlari huquqiy targ'ibotning sotsiologik mohiyatini ochib beradi, biroq zamonaviy raqamli kommunikatsiya vositalari orqali amalga oshirilayotgan huquqiy targ'ibot shakllarini qamrab olmaydi. **A.X.Saidov** huquqiy madaniyatni "shaxs, jamiyat va davlatning huquqqa bo'lgan munosabati va huquqiy qadriyatlar tizimi" sifatida baholaydi [6]. Biroq mazkur yondashuvlarda adliya organlarining huquqiy targ'ibot sohasidagi institutsional vakolatlari, raqamli huquqiy kommunikatsiya hamda huquqiy targ'ibot samaradorligini baholash mezonlari kompleks tarzda tadqiq etilmagan.

Yuqoridagi ilmiy qarashlarning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, huquqiy targ'ibotga nisbatan mavjud yondashuvlar uning alohida funksiyalarini yoritadi, biroq adliya organlari faoliyatining institutsional xususiyatlarini kompleks tarzda ochib bermaydi. Shu sababli, muallifning fikricha, huquqiy targ'ibotni faqat huquqiy bilimlarni tarqatish yoki huquqbuzarliklar profilaktikasi vositasi sifatida emas, balki davlatning huquqiy siyosatini amalga oshirish, fuqarolarning huquqiy ehtiyojlarini aniqlash, jamiyat bilan samarali huquqiy muloqotni yo'lga qo'yish hamda huquqiy madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan kompleks institutsional faoliyat sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq. Shundan kelib chiqib, quyidagi

mualliflik ta'rifini taklif etish mumkin **“Adliya organlari va muassasalarining huquqiy targ'ibot faoliyati** – davlatning huquqiy siyosatini amalga oshirish maqsadida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, huquqiy axborotdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, fuqarolarning huquqiy ehtiyojlarini aniqlash hamda davlat va jamiyat o'rtasida samarali huquqiy kommunikatsiyani ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy, axborot-kommunikatsion va ma'rifiy tadbirlar tizimidir”.

O'zbekiston Respublikasida huquqiy targ'ibotni tashkil etish va amalga oshirishning institutsional asoslari so'nggi yillarda tubdan takomillashtirildi. Davlat boshqaruvi tizimida adliya organlarining vakolatlari kengaytirilib, ular aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo'yicha maxsus vakolatli organ sifatida belgilandi. Mazkur islohotlar huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish konsepsiyasining amaliy ifodasi bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son Farmoni huquqiy targ'ibot tizimini yangi bosqichga olib chiqqan muhim siyosiy-huquqiy hujjat hisoblanadi. Mazkur Farmon bilan huquqiy targ'ibot faqat alohida davlat organining vazifasi emas, balki “shaxs – oila – mahalla – ta'lim muassasasi – tashkilot – jamiyat” tamoyili asosida amalga oshiriladigan uzluksiz tizim sifatida belgilandi. Natijada huquqiy madaniyatni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etildi [7]. Mazkur Farmonda belgilangan muhim vazifalarning ahamiyati shundan iboratki, huquqiy targ'ibot endilikda faqat qonunlarni tushuntirish bilan cheklanmaydi. U fuqarolarning huquqiy ehtiyojlarini aniqlash, huquqiy axborotdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, davlat organlari faoliyatining ochiqqligini ta'minlash hamda fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kuchaytirishga xizmat qiluvchi kompleks mexanizm sifatida qaralmoqda. Shu jihatdan PF-5618-son Farmoni huquqiy targ'ibotning konseptual modelini tubdan o'zgartirgan normativ-huquqiy hujjat sifatida baholashimiz mumkin.

Adliya vazirligining huquqiy targ'ibot sohasidagi vakolatlari Prezidentning PQ-5040-son qarori bilan yanada aniqlashtirildi [8]. Mazkur qaror asosida vazirlik nafaqat normativ-huquqiy hujjatlarni aholiga yetkazuvchi organ, balki huquqiy axborot siyosatini shakllantiruvchi, davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi hamda zamonaviy huquqiy xizmatlarni rivojlantiruvchi markaziy institut sifatida faoliyat yuritmoqda. Aynan ushbu hujjatlar qabul qilinganidan so'ng adliya organlarining huquqiy targ'ibot sohasidagi vakolatlari quyidagi uchta asosiy yo'nalishda yanada rivojlana boshladi:

Birinchidan, **axborot-kommunikatsion yo'nalish** shakllandi. Bu yo'nalish doirasida Lex.uz, Advice.uz, “Madad” tizimi hamda boshqa elektron platformalar orqali fuqarolarga huquqiy axborotlarni tezkor va bepul yetkazish imkoniyati yaratildi. Natijada huquqiy axborotning ochiqqligi va foydalanish qulayligi sezilarli darajada oshdi.

Ikkinchidan, **ma'rifiy yo'nalish** rivojlantirildi. Adliya organlari tomonidan seminarlar, davra suhbatlari, sayyor qabullar, ommaviy tadbirlar va media loyihalar orqali aholining turli qatlamlariga manzilli huquqiy tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Bunday yondashuv huquqiy targ'ibotni ommaviy xarakterdan individual ehtiyojlarga yo'naltirilgan tizimga aylantirish imkonini bermoqda.

Uchinchidan, **institutsional muvofiqlashtirish yo'nalishi** shakllandi. Bugungi kunda adliya organlari huquqiy targ'ibot jarayonida davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ta'lim muassasalari va ommaviy axborot vositalari faoliyatini o'zaro muvofiqlashtirib, yagona davlat siyosatini amalga oshirmoqda.

Shuni ham qayd etish joizki, huquqiy targ'ibot sohasida ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, ayrim hollarda huquqiy targ'ibot tadbirlari son jihatdan baholanmoqda, ularning fuqarolar huquqiy ongi va xulq-atvoriga real ta'siri esa yetarlicha o'rganilmayapti. Bundan tashqari, huquqiy targ'ibot natijadorligini baholashning yagona indikatorlari ishlab chiqilmaganligi sababli turli hududlarda olib borilayotgan faoliyatni obyektiv solishtirish imkoniyati cheklangan.

Fikrimizcha, huquqiy targ'ibot samaradorligini baholashda faqat o'tkazilgan tadbirlar soni emas, balki bir qator mezonlar asosiy ko'rsatkich sifatida e'tiborga olinishi lozim. Xususan, aholining huquqiy bilim darajasidagi o'zgarishlar, fuqarolarning davlat xizmatlaridan foydalanish faolligi, huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha erishilgan natijalar, elektron huquqiy platformalardan foydalanish ko'rsatkichlari

va fuqarolarning davlat organlariga bo'lgan ishonch darajasi. Mazkur mezonlarning joriy etilishi huquqiy targ'ibotning samaradorligini faqat statistik ko'rsatkichlar orqali emas, balki uning ijtimoiy va huquqiy natijalari asosida baholash imkonini beradi. Bu esa adliya organlari faoliyatining ochiqligi, hisobdorligi va natijadorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Huquqiy targ'ibotni tashkil etishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishda rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish alohida ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Biroq xorijiy tajribani milliy tizimga mexanik ravishda ko'chirish emas, balki uni O'zbekistonning huquqiy tizimi, davlat boshqaruvi modeli va jamiyatning ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olgan holda moslashtirish muhimdir.

Rivojlangan davlat tajribasini tahlil qilar ekanmiz, har bir davlatning o'ziga xos amaliyotiga duch kelamiz. Misol uchun, **Germaniyada** huquqiy targ'ibot fuqarolar bilan ochiq muloqot tamoyiliga asoslanadi. Federal va mahalliy davlat organlari qonunchilikdagi o'zgarishlarni oddiy va tushunarli tilda izohlashga alohida e'tibor qaratadi [9]. Davlat organlarining rasmiy elektron portallari, interaktiv maslahat xizmatlari hamda huquqiy axborot platformalari aholining huquqiy ehtiyojlariga mos ravishda faoliyat yuritadi. Eng muhimi, huquqiy targ'ibot natijalari muntazam ravishda sotsiologik so'rovlar va monitoring tizimlari orqali baholanadi. O'zbekiston tajribasi bilan qiyoslanganda, mamlakatimizda ham Lex.uz, Advice.uz va boshqa elektron platformalar faoliyat yuritmoqda. Biroq ularning samaradorligi ko'proq foydalanuvchilar soni yoki tashriflar statistikasi orqali baholanmoqda. Fikrimizcha, Germaniya tajribasidan kelib chiqib, huquqiy targ'ibotning fuqarolar huquqiy ongiga ta'sirini o'lchovchi ilmiy indikatorlarni joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

AQSHda huquqiy targ'ibot davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligi asosida tashkil etiladi. Advokatlar uyushmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda ommaviy axborot vositalari aholining huquqiy savodxonligini oshirishda faol ishtirok etadi. Ayniqsa, "community legal education" modeli orqali aholining ehtiyojidan kelib chiqadigan maqsadli huquqiy tushuntirish ishlari olib boriladi [10]. Mazkur tizimning afzalligi shundaki, huquqiy targ'ibot davlatning yagona vazifasi emas, balki butun jamiyatning umumiy mas'uliyati sifatida qaraladi. O'zbekistonda esa huquqiy targ'ibot asosan davlat organlari tomonidan amalga oshirilmoqda. Bu markazlashgan boshqaruvni ta'minlasa-da, nodavlat tashkilotlari, ilmiy muassasalar va professional birlashmalarning imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanilmayotganini ko'rsatadi. Shu sababli, huquqiy targ'ibot tizimiga fuqarolik jamiyati institutlarini kengroq jalb etish uning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Yaponiya tajribasining o'ziga xos jihati shundaki, huquqiy madaniyatni shakllantirish maktabgacha ta'lim bosqichidan boshlanadi. Ta'lim dasturlarida qonunga hurmat, fuqarolik mas'uliyati, ijtimoiy xulq-atvor va nizolarni tinch yo'l bilan hal etish ko'nikmalarini shakllantirishga katta e'tibor beriladi. Natijada huquqiy targ'ibot faqat katta yoshdagi aholiga emas, balki butun umr davom etadigan uzluksiz ta'lim jarayonining tarkibiy qismiga aylanadi [11]. O'zbekistonda ham huquqiy tarbiya maktab, oliy ta'lim va mahalla tizimi orqali amalga oshirilmoqda. Ammo huquqiy targ'ibotning uzluksizlik tamoyili barcha bosqichlarda bir xil darajada ta'minlangan deb bo'lmaydi. Bizda ham Yaponiya tajribasi asosida maktabgacha va boshlang'ich ta'lim dasturlariga yoshga mos huquqiy tarbiya elementlarini tizimli ravishda kiritish istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, adliya organlari va muassasalarining huquqiy targ'ibot faoliyati zamonaviy huquqiy davlatni rivojlantirishning muhim institutsional omillaridan biri hisoblanadi. Huquqiy targ'ibotning samaradorligi nafaqat aholiga huquqiy axborot yetkazish darajasi, balki fuqarolarning huquqiy ongi, huquqiy madaniyati va huquqiy faolligida yuz berayotgan ijobiy o'zgarishlar bilan baholanishi lozim.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, O'zbekistonda huquqiy targ'ibot tizimini yanada takomillashtirish quyidagi ustuvor yo'nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq deb hisoblashimiz mumkin:

Birinchidan, huquqiy targ'ibotni rivojlantirishning Milliy konsepsiyasini ishlab chiqish zarur. Mazkur konsepsiyada huquqiy targ'ibotning maqsadlari, tamoyillari, asosiy subyektlari, ularning vakolatlari, moliyalashtirish manbalari hamda samaradorlik mezonlari yagona hujjat doirasida belgilanishi lozim.

Bugungi kunda ushbu masalalar turli normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solingan bo'lib, ularning tizimlashtirilishi huquqni qo'llash amaliyotida yagona yondashuvni shakllantiradi.

Ikkinchidan, "oddiy tilda huquq" tamoyilini huquqiy targ'ibotning majburiy standarti sifatida joriy etish maqsadga muvofiq. Aholining aksariyati murakkab yuridik terminologiyani to'liq tushuna olmaydi. Shu sababli davlat organlari tomonidan tayyorlanayotgan huquqiy axborot materiallari sodda, ravon va xalqchil shaklda ishlab chiqilishi zarur. Bu esa huquqiy axborotning amaliy ahamiyatini oshiradi hamda fuqarolarning qonunchilikka bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Uchinchidan, sun'iy intellekt texnologiyalarini huquqiy targ'ibot tizimiga bosqichma-bosqich integratsiya qilish zarur. Bunda sun'iy intellektdan huquqiy maslahat berish emas, balki huquqiy axborotni izlash, normativ-huquqiy hujjatlarni sodda tilda tushuntirish, fuqarolarning tez-tez uchraydigan savollariga avtomatlashtirilgan javoblar tayyorlash va huquqiy murojaatlar tahlilini amalga oshirishda foydalanish maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, Adliya vazirligi huzurida huquqiy targ'ibot bo'yicha Ilmiy-tahliliy markaz tashkil etish maqsadga muvofiq. Mazkur markaz huquqiy targ'ibot samaradorligini monitoring qilish, ilmiy tadqiqotlar olib borish, xorijiy tajribani o'rganish, metodik tavsiyalar ishlab chiqish hamda davlat organlari faoliyatini ilmiy jihatdan qo'llab-quvvatlash vazifalarini amalga oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, adliya organlari va muassasalarining huquqiy targ'ibot faoliyatini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim shartlaridan biridir. Biz yuqorida qayd etib o'tgan nazariy xulosalar hamda ilmiy-amaliy takliflar huquqiy targ'ibotning institutsional asoslarini mustahkamlash, davlat va jamiyat o'rtasidagi huquqiy kommunikatsiyani rivojlantirish, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish hamda adliya organlari faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

IQTIBOSLAR/ЧОККИ/REFERENCES:

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017. URL: <https://library.ziyouz.com/book/82504>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5618-son Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.05.2026-y., 06/26/78/0454-son). URL: <https://lex.uz/docs/-4149765>
3. Алексеев С.С. Теория права. – Москва: БЭК, 1995. URL: https://rusneb.ru/catalog/000200_000018_rc_22697/
4. Кудрявцев В.Н. Правовое поведение: норма и патология. – Москва, 1982. URL: <https://ci.nii.ac.jp/ncid/BA26229827>
5. Carbonnier J. Sociologie juridique. – Paris, 1978. URL: <https://lawcat.berkeley.edu/record/58008>
6. Saidov A.X. Huquqiy madaniyat nazariyasi. – T.: "Akademiya", 1998. URL: [https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/huquq/Huquqiy%20madaniyat%20nazariyasi.%201-jild%20\(U.Tadjixanov,%20A.Saidov\).pdf](https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/huquq/Huquqiy%20madaniyat%20nazariyasi.%201-jild%20(U.Tadjixanov,%20A.Saidov).pdf)
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5618-son Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.05.2026-y., 06/26/78/0454-son). URL: <https://lex.uz/docs/-4149765>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-son Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.03.2025-y., 06/25/52/0262-son). URL: <https://lex.uz/docs/-5344692>
9. Gesetze im Internet. URL: <https://www.gesetze-im-internet.de/>
10. Community Legal Education standarti: URL: https://www.americanbar.org/groups/legal_aid_indigent_defense/resource_center_for_access_to_justice/standards-and-policy/updated-standards-for-the-provision-of-civil-legal-aid/standard-3-3-on-service-delivery-to-communities/
11. Japan Ministry of Education, Culture, Sports, Science and Technology. URL: <https://www.mext.go.jp/en/policy/education/lawandplan/title01/detail01/1373798.htm>

MIRZAYEV Fayzulla Ibodullayevich

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza
qilish akademiyasi dotsenti,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
E-mail: f.i.mirzaev@proacademy.uz

JINOIY DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHGA QARSHI KURASHISH TIZIMIDA MOLIYAVIY RAZVEDKA MA'LUMOTINING MA'MURIY-HUQUQIY REJIMI

Iqtibos keltirish uchun (для цитирования, for citation): MIRZAYEV F.I. Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish tizimida moliyaviy razvedka ma'lumotining ma'muriy-huquqiy rejimi // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 4 (2026) B. 35-43.



4 (2026) DOI <https://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/4-004>

ANNOTATSIYA

Ilmiy maqolada jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish (JDL/TMQK) tizimida moliyaviy razvedka ma'lumotining kompleks ma'muriy-huquqiy rejimi va uning o'ziga xos xususiyatlari ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Ushbu ma'lumotlar rejimi bank siri, soliq siri, shaxsga doir ma'lumotlarni muhofaza qilish, axborot xavfsizligi, tezkor-qidiruv faoliyati hamda jinoyat-protsessual isbotlash normalari bilan uzviy bog'lanishi, biroq uning ustuvor tashkiliy-preventiv asosi ma'muriy-huquqiy tabiatga ega ekani qonuniy va nazariy jihatdan asoslanadi. Maqolada shubhali operatsiya to'g'risidagi dastlabki xabar, davlat manbalari bilan boyitilgan moliyaviy razvedka ma'lumoti hamda yakuniy moliyaviy razvedka tahliliy mahsulotining har biri alohida huquqiy maqom va ahamiyatga ega ekani ko'rsatib beriladi. Muallif moliyaviy razvedkaning tahliliy mahsuloti o'z-o'zidan jinoyat-protsessual dalil bo'la olmasligi, u faqat vakolatli davlat organi tomonidan qonunda belgilangan tegishli protsessual shakllarda mustaqil baholanganidan va rasmiylashtirilganidan keyingina to'liq daliliy ahamiyat kasb etishi mumkinligi haqidagi ilmiy xulosani ilgari suradi. Maqolada moliyaviy razvedka ma'lumotlarini saqlash, tuzatish, yo'q qilish, maqsaddan tashqari foydalanishni cheklash hamda nazorat mezonlarini takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy razvedka, moliyaviy monitoring, ma'muriy-huquqiy rejim, shubhali operatsiya to'g'risidagi xabar, boyitilgan moliyaviy razvedka ma'lumoti, moliyaviy razvedka tahliliy mahsuloti, maxsus vakolatli davlat organi, dalillar maqbulligi, axborot xavfsizligi, nazorat.

МИРЗАЕВ Файзулла ИбодуллаевичДоцент Правоохранительной академии Республики Узбекистан,
доктор философии по юридическим наукам (PhD), доцентE-mail: f.i.mirzaev@proacademy.uz

АДМИНИСТРАТИВНО-ПРАВОВОЙ РЕЖИМ ФИНАНСОВО-РАЗВЕДЫВАТЕЛЬНОЙ ИНФОРМАЦИИ В СИСТЕМЕ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ ЛЕГАЛИЗАЦИИ ПРЕСТУПНЫХ ДОХОДОВ

АННОТАЦИЯ

В научной статье комплексно и детально анализируется правовой режим финансово-разведывательной информации в национальной системе противодействия легализации преступных доходов и финансированию терроризма (ПОД/ФТ). Подробно обосновывается межотраслевой и комплексный характер данного правового режима, непосредственно связанного с институтами банковской и налоговой тайны, защитой персональных данных, информационной безопасностью, оперативно-розыскной деятельностью и уголовно-процессуальным доказыванием. При этом доказывается, что его центральное организационно-превентивное ядро сохраняет четкую административно-правовую природу. В статье работе четко разграничиваются первичное сообщение о подозрительной операции, обогащенная финансово-разведывательная информация с привлечением дополнительных источников и аналитический продукт финансовой разведки. Автор приходит к обоснованному научному выводу о том, что аналитический продукт сам по себе не является уголовно-процессуальным доказательством и приобретает полноценное доказательственное значение только после его независимой оценки компетентным государственным органом в установленной законной процессуальной форме. На этой правовой основе предложены конкретные направления совершенствования национального законодательства, включая закрепление трехуровневой терминологической модели, полное нормативное регулирование жизненного цикла информации, определение правового статуса аналитического продукта и усиление механизмов контроля.

Ключевые слова: финансовая разведка, финансовый мониторинг, административно-правовой режим, сообщение о подозрительной операции, аналитический продукт, специально уполномоченный государственный орган, допустимость доказательств, информационная безопасность, контроль.

FAYZULLA MirzaevAssociate Professor of the Law Enforcement
Academy of the Republic of Uzbekistan,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate professor
E-mail: f.i.mirzaev@proacademy.uz

THE ADMINISTRATIVE AND LEGAL REGIME OF FINANCIAL INTELLIGENCE INFORMATION IN ANTI-MONEY LAUNDERING

ANNOTATION

The comprehensive research article thoroughly examines the legal regime of financial intelligence information within the system for anti-money laundering and the financing of terrorism (AML/CFT). It convincingly argues that this legal regime is complex because it directly intersects with banking and tax secrecy, personal data protection, information security, operational-search activity and criminal-procedural evidentiary rules. At the same time, its main organizational and preventive core remains

administrative-legal. The article clearly distinguishes between an initial suspicious transaction report, enriched financial intelligence information and a financial intelligence analytical product. The author logically concludes that an analytical product is not evidence in itself and may acquire evidentiary value only after independent verification by a competent authority through procedural forms prescribed by national law. The article proposes key legislative improvements: defining the three-level terminology model, regulating the entire information lifecycle, clarifying the legal status of analytical products and strengthening institutional oversight without disclosing protected information.

Keywords: financial intelligence, financial monitoring, administrative-legal regime, suspicious transaction report, enriched financial intelligence information, analytical product, competent authority, admissibility of evidence, information security, oversight.

Globalashgan moliya tizimida noqonuniy mablag'lar qisqa vaqt ichida bir yurisdiksiyadan boshqasiga o'tkaziladi, turli moliyaviy va nomoliyaviy vositalar orqali qatlamlashtiriladi hamda keyinchalik qonuniy iqtisodiy muomalaga qaytariladi. Bunday harakatchanlikka jinoyat sodir etilgandan keyingi protsessual choralar bilangina javob berish yetarli emas. JDL/TMQKning zamonaviy modeli moliyaviy oqimlarni oldindan kuzatish, shubhali bog'lanishlarni aniqlash va vakolatli organlarga asosli qaror qabul qilish uchun zarur tahliliy axborotni yetkazishga tayangan preventiv mexanizmni talab etadi. Moliyaviy razvedka bo'linmasi ana shu mexanizmning markaziy bo'g'inidir.

Ilmiy adabiyotlarda moliyaviy razvedka bo'linmalari ko'pincha ma'muriy, huquqni muhofaza qiluvchi, sud-prokuratura va aralash modellarga ajratiladi. Bu tasnif tashkiliy qiyoslash uchun foydali, biroq moliyaviy razvedka faoliyatining asosiy huquqiy mazmunini to'liq ochmaydi. Asosiy masala bo'linmaning qaysi idoraga mansubligida emas, katta hajmdagi cheklangan ma'lumotni qabul qilish, birlashtirish, tahlil qilish, saqlash va tarqatish vakolatlari qanday tartibga solinganidadir. Bir xil tashkiliy model doirasida ham axborotga kirish ko'lam, tahlilni boshlash mezonlari, tarqatish asoslari va nazorat shakllari farq qilishi mumkin.

FATFning 1, 2, 20, 21, 29 va 40-tavsiyalari moliyaviy razvedka bo'linmasini riskka asoslangan yondashuv, milliy hamkorlik, shubhali operatsiyalar bo'yicha xabar berish, xabar beruvchilarni himoya qilish, moliyaviy razvedka bo'linmasining yadro funksiyalari hamda xalqaro axborot almashinuvi bilan bog'liq yagona tizim ichida ko'radi [1]. Bu yondashuv moliyaviy razvedkani uchta texnik harakat yig'indisi emas, davlat vakolati va maxsus axborot tartibi tutashgan alohida boshqaruv faoliyati sifatida baholashga asos beradi.

O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 26-avgustdagi "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi 660-II-son Qonuni (keyingi o'rinlarda – 660-son Qonun) maxsus vakolatli davlat organining pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalar haqidagi ma'lumotni olishi, o'rganishi va vakolatli organlarga yuborishiga doir asosiy qoidalarni belgilaydi [2]. 2021-yilda tasdiqlangan Milliy tizimni rivojlantirish strategiyasida axborot almashinuvi va ma'lumotlarga ishlov berishning zamonaviy usullarini joriy etish ustuvor vazifa sifatida qayd etilgan [3]. Shunga qaramay, amaldagi tartib moliyaviy razvedka ma'lumotining turlari, huquqiy ahamiyati, foydalanish maqsadi, saqlash muddati va qayta tarqatish chegaralarini yagona konsepsiya asosida belgilamaydi.

Moliyaviy razvedka ma'lumotining huquqiy rejimi faqat ma'muriy huquq bilan tugamaydi: u bank siri, soliq siri, shaxsga doir ma'lumotlar, axborot xavfsizligi, tezkor-qidiruv faoliyati va jinoyat-protsessual isbotlash normalari bilan tutashadi. Shaxsga doir ma'lumotlar qonuniy maqsad va zarur himoya choralari talab qiladi [4]. Bank siri mijozga oid ma'lumotlarni olish va taqdim etishning alohida tartibini belgilaydi [5]. Soliq siri davlat organlari o'rtasidagi axborot almashinuvining fiskal chegarasini ko'rsatadi [6]. Kiberxavfsizlik talablari esa elektron tizimlarda ishlov beriladigan ma'lumot himoyasini kuchaytiradi [7]. Shunga qaramay, ushbu kompleks rejimning tashkiliy-preventiv yadrosi ma'muriy-

huquqiydir: ma'lumotni qabul qilish, boyitish, tahlil qilish va tarqatish sud muhokamasi yoki tergov harakati emas, maxsus vakolatli davlat organining boshqaruv faoliyatidir.

Moliyaviy razvedka ma'lumotini oddiy axborot bilan tenglashtirish uning huquqiy xususiyatini xira qiladi. Bu ma'lumot qonunda belgilangan majburiyat asosida xususiy sektor subyektlaridan davlat organiga kelib tushadi, keyin davlat va nodavlat axborot resurslari hisobiga boyitiladi. Algoritmik hamda ekspert tahlili natijasida dastlabki ma'lumotdan mazmunan farq qiladigan yangi mahsulot yaratiladi. U tekshiruv, tezkor-qidiruv, ma'muriy nazorat yoki protsessual qarorlar uchun yo'nalish berishi mumkin. Demak, moliyaviy razvedka ma'lumoti davlat boshqaruvi doirasida aniq maqsad uchun shakllantiriladigan va cheklangan tartibda muomalaga kiritiladigan maxsus ma'muriy axborotdir.

Ushbu axborotning huquqiy rejimini uch pog'onali modelda ko'rish maqsadga muvofiq. Birinchi pog'ona - shubhali operatsiya to'g'risidagi dastlabki xabar. U moliyaviy monitoring subyektining professional shubhasini bildiradi, ammo hali davlat organi tomonidan tekshirilgan yoki tasdiqlangan ma'lumot emas. Ikkinchi pog'ona - boyitilgan moliyaviy razvedka ma'lumoti. Bunda dastlabki xabar davlat reyestrlari, soliq, bojxona, migratsiya, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, bank va ochiq manbalar ma'lumotlari bilan solishtiriladi. Uchinchi pog'ona - moliyaviy razvedka tahliliy mahsuloti. Bu tahlil natijasida shakllantiriladigan, muayyan xavf, aloqa, sxema yoki tendensiya haqida asoslangan xulosa beradigan maxsus axborot hujjatidir.

Bunday farqlash amaliy huquqiy natijaga ega. Dastlabki xabar shubhani bildiradi; boyitilgan ma'lumot shubhaning kontekstini kengaytiradi; tahliliy mahsulot esa vakolatli organ uchun tekshiruv yo'nalishini ko'rsatadi. Ularning barchasini bir xil maqomda baholash dastlabki shubhani tahliliy xulosa bilan, tahliliy xulosani esa dalil bilan tenglashtirish xavfini tug'diradi. Moliyaviy razvedka ma'lumotining maxsus rejimi aynan shu xatarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Moliyaviy razvedka bo'linmasining samarali ishlashi keng axborot manbalariga o'z vaqtida kirish, so'rovlarni asoslantirish, kelib tushgan ma'lumotni taqqoslash va uni tegishli organlarga tarqatish imkoniyatiga bog'liq. Egmont guruhi prinsiplarida FIUlar o'rtasida ma'lumot almashish tezkor, konstruktiv va xavfsiz bo'lishi, olingan ma'lumotdan esa faqat ruxsat etilgan maqsadda foydalanilishi kerakligi ko'rsatiladi [8]. Bunday talab milliy idoralararo almashinuv uchun ham muhim: keng kirish vakolati hech qachon cheksiz kirish degani emas.

Operativ tahlil operatsiyalar, shaxslar, hisobvaraqlar, aktivlar va transchegaraviy harakatlar o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlashga qaratiladi. U ma'lumotlarni jamlash bilan cheklanmaydi; tahlilchi gipoteza tuzadi, xavf omillarini solishtiradi va huquqiy ahamiyatga ega aloqalarni ajratadi. Yevropa Ittifoqining FIUlar hamkorligiga oid 2024-yilgi direktivasi bosqichma-bosqich implementatsiya qilinishi va asosiy qoidalari 2027-yil 10-iyuldan qo'llanishi bilan e'tiborga loyiqdir [9]. Bu tajriba milliy huquq uchun tayyor model emas, lekin axborot bosqichlarini aniq tartibga solish zarurligini ko'rsatadi.

Moliyaviy razvedka ma'lumoti - JDL/TMQK maqsadlarida maxsus vakolatli davlat organi tomonidan qonuniy manbalardan qabul qilingan, yig'ilgan, boyitilgan va tahlilga tayyorlangan, foydalanilishi cheklangan axborotlar majmuidir. Moliyaviy razvedka tahliliy mahsuloti esa operativ yoki strategik tahlil natijasida tuziladigan, muayyan xavf, aloqa, sxema yoxud tendensiya haqida asoslangan xulosalarni mujassam etgan maxsus axborot hujjatidir. Bu ikki tushuncha qonun darajasida ajratilmasa, axborotning keyingi huquqiy taqdiri idoraviy amaliyot ixtiyorida qoladi.

Moliyaviy razvedka tahliliy mahsuloti vakolatli organga tekshiruv yo'nalishini ko'rsatadi, biroq u o'z-o'zidan jinoyat-protsessual dalil maqomiga ega bo'lmaydi. Dalil maqomi faqat JPKda belgilangan manba va tartib asosida shakllanadi. Shu sababli tahliliy mahsulotdagi ma'lumotlar keyinchalik so'roq, hujjatlarni talab qilib olish, olib qo'yish, ko'zdan kechirish, ekspertiza tayinlash, raqamli dalilni ko'zdan kechirish yoki boshqa protsessual harakatlar orqali tekshirilganidan keyingina jinoyat ishi doirasida daliliy ahamiyat kasb etishi mumkin.

Oliy sud Plenumining dalillar maqbulligi haqidagi tushuntirishlarida jinoyat ishini yuritishda JPK talablariga, shu jumladan dalillarni to'plash, tekshirish va baholash tartibiga qat'iy rioya qilish lozimligi, qonun talablaridan chekinish esa dalilning maqbul emas deb topilishiga olib kelishi qayd etilgan [10].

Bu pozitsiya moliyaviy razvedka mahsulotiga ham taalluqli: mahsulotdagi ma'lumot muhim bo'lishi mumkin, ammo uning muhimligi protsessual shakl o'rnini bosa olmaydi.

Ushbu chegara moliyaviy razvedkaning preventiv qiymatini kamaytirmaydi. Aksincha, uning natijalarini qonuniy protsessual maydonga to'g'ri o'tkazishga xizmat qiladi. Agar tahliliy mahsulot dalil bilan avtomatik tenglashtirilsa, xususiy sektor tomonidan yuborilgan professional shubha davlat ayblovining bevosita asosiga aylanib qolishi mumkin. Bu esa preventiv monitoring va jinoyat-protsessual isbotlash o'rtasidagi zarur huquqiy masofani buzadi.

Ma'muriy-huquqiy rejimni umumiy taqiqlar majmui deb tushunish tor yondashuvdir. U muayyan boshqaruv maqsadiga erishish uchun vakolatlar, tartib-taomillar, cheklovlar, kafolatlar va javobgarlik choralari bir tizimga birlashtiradi. Moliyaviy razvedka ma'lumotining rejimi axborotni olish vakolati, unga ishlov berish tartibi, foydalanish va tarqatish chegaralari, maxfiylik kafolatlari, nazorat va javobgarlikdan tarkib topadi.

Axborotni olish vakolati mazkur rejimning boshlang'ich nuqtasidir. Maxsus vakolatli davlat organi operatsiyalar haqidagi xabarlarini qabul qilish bilan cheklanmay, tahlil uchun zarur qo'shimcha ma'lumotni so'rash imkoniga ham ega bo'lishi kerak. Biroq bu vakolat ma'lumotning JDL/TMQK maqsadiga bevosita aloqadorligi, so'ralayotgan hajmning zarurligi va maqsadga kamroq cheklovchi vosita orqali erishib bo'lmashligi bilan chegaralanishi lozim. Ushbu mezonlar normada aks etmasa, so'rovning asoslanganligi ma'muriy ixtiyorga haddan tashqari bog'lanib qoladi.

Axborotga ishlov berish alohida harakatlar yig'indisi emas, uzviy huquqiy jarayondir. U xabarni qabul qilish va ro'yxatga olishdan boshlanib, dastlabki sifat nazorati, ustuvorlikni belgilash, qo'shimcha ma'lumot yig'ish, operativ yoki strategik tahlil, tarqatish to'g'risida qaror qabul qilish, saqlash, arxivlash yoxud yo'q qilish bilan davom etadi. Har bir bosqichda mas'ul shaxs, muddat, kirish darajasi va elektron audit izi qayd etilishi zarur. Bunday tartib axborot xavfsizligini ta'minlash bilan birga, qarorning qonuniyligini keyinchalik tekshirish imkonini ham yaratadi.

Foydalanish va tarqatish chegaralari oldindan aniq bo'lishi kerak. Muayyan maqsadda yig'ilgan moliyaviy razvedka ma'lumotini boshqa, cheklanmagan maqsadlarda ishlatish mumkin emas. Maqsadlilik prinsipi qaysi organ ma'lumotdan qaysi vakolat doirasida va qanday vazifa uchun foydalanishini belgilaydi. Egmont guruhining operatsion yo'riqnomasida FIUlar axborotni o'z tashabbusi bilan yoki so'rov asosida almashishi, ammo olingan ma'lumotni keyingi tarqatish va undan foydalanish dastlabki ruxsat hamda maxfiylik shartlariga bo'ysunishi kerakligi ko'rsatiladi [11].

Maxfiylikni ma'lumotni uchinchi shaxsga oshkor qilmaslik bilangina cheklab bo'lmaydi. U kirishni xizmat vazifasiga qarab chegaralash, zarur bo'lgan eng kam ma'lumot prinsipini qo'llash, xodimlar harakatini qayd etish, nusxa olish va tashqi muhitga chiqarishni nazorat qilish, kiberxavfsizlik hamda xizmat tugaganidan keyin ham sir saqlash majburiyatini qamrab oladi. Xabar bergan tashkilotni himoya qilish muhim, ammo ichki tartib xabar taalluqli bo'lgan shaxsning qonuniy manfaatlarini ham bilvosita himoya qilishi kerak.

Operativ mustaqillik nazoratsizlik degani emas. Maxsus vakolat qanchalik keng bo'lsa, uni qo'llash shunchalik puxta hujjatlashtirilishi va tekshirilishi kerak. Ichki nazorat noqonuniy kirish, asossiz so'rov, maqsaddan tashqari foydalanish, tarqatish tartibini buzish va saqlash muddatlariga rioya etmaslik holatlarini qamrab olishi zarur. Tashqi nazorat esa maxfiy ma'lumot mazmunini oshkor qilmagan holda qonuniylik, axborot xavfsizligi va vakolatlar mutanosibligini baholashi lozim.

O'zbekistonning milliy modeli markazlashgan maxsus vakolatli davlat organi, idoralararo muvofiqlashtirish va sohaviy ichki nazoratning o'zaro aloqasiga tayangan. Qonun moliyaviy monitoring subyektlarining ma'lumot taqdim etish majburiyatini, maxsus vakolatli davlat organining vazifalarini va axborot almashinuvi asoslarini belgilaydi. Idoralararo komissiya tavakkalchiliklarni baholash, davlat siyosatini takomillashtirish, xalqaro standartlarni milliy tizimga joriy etish va huquqni qo'llash amaliyotini kuzatib borish vazifalarini bajaradi [12]. Bu normalar institutsional tizim mavjudligini ko'rsatadi, biroq moliyaviy razvedka ma'lumotining ichki huquqiy tabaqalanishini to'liq ta'minlamaydi.

Maxsus vakolatli davlat organining institutsional maqomi ham aniqlik talab qiladi. O'zbekiston modelida ushbu funksiya Bosh prokuratura tizimi bilan bog'langan holda amalga oshiriladi; Bosh prokuratura rasmiy axborotida uning tizimida Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti mavjudligi ko'rsatiladi [13]. Bunday joylashuv huquqni muhofaza qiluvchi institutsional muhit bilan izohlanadi, ammo moliyaviy razvedka funksiyasini tergov yoki ayblov funksiyasi bilan aynanlashtirmaydi. Operativ mustaqillik tashkiliy bo'ysunuvdan to'liq ajralish emas, ma'lumotni qabul qilish, tahlil qilish, qo'shimcha ma'lumot so'rash va tarqatish bo'yicha funksional qarorga noqonuniy aralashuvdan himoyalanişdir.

Tushunchalar tizimida aniqlik yetishmasligi amaliy xatarga aylanadi. Qonunchilikda operatsiya haqidagi xabar, tahliliy ma'lumot, material va axborot atamaları uchraydi, ammo ularning o'zaro nisbati va huquqiy oqibatlari aniq ajratilmagan. Natijada ma'lumot qaysi bosqichda davlat organining tahliliy mahsulotiga aylanishi, uning ishonchlilik darajasi qanday ifodalanishi va qabul qiluvchi organ undan qay tarzda foydalanishi idoraviy amaliyotga bog'lanib qoladi.

Tartib-taomillarning tarqoq holda belgilanishi ham shunga yaqin muammoni keltirib chiqaradi. Ma'lumotni qabul qilish, qo'shimcha axborot talab etish, tahlil qilish va tarqatish vakolatlari mavjud, biroq ular yagona ma'muriy jarayon sifatida tartibga solinmagan. Tahlilni boshlash mezonlari, ustuvorlikni belgilash, natijani tasdiqlash, tarqatish qarorini qayd etish va mahsulotni qayta ko'rib chiqishning umumiy qoidalari qonunda aks etishi kerak. Texnik tafsilotlarni idoraviy hujjatlarda belgilash mumkin, lekin asosiy bosqichlar va kafolatlarni to'liq idoraviy tartibga topshirish asosli emas.

Ma'lumotning keyingi taqdiri ham yetarlicha aniqlashtirilmagan. Saqlash muddati, uni uzaytirish asoslari, dolzarblikni qayta baholash, noto'g'ri ma'lumotni tuzatish, takroriy xabarlarini birlashtirish va maqsad yo'qolganda ma'lumotni yo'q qilish mezonlari huquqiy rejimning ajralmas qismidir. Axborotni cheksiz saqlash tahlil sifatini o'z-o'zidan oshirmaydi. Aksincha, eskirgan va kontekstdan uzilgan ma'lumot noto'g'ri xulosalar ehtimolini ko'paytiradi.

Empirik asos masalasida ehtiyotkorlik talab qilinadi. Ochiq manbalarda shubhali operatsiyalar to'g'risidagi xabarlarining tahliliy mahsulotga aylanish darajasi, o'rtacha tahlil muddati, vakolatli organlarga tarqatilgan mahsulotlar soni va keyingi natijadorlik ko'rsatkichlari tizimli ravishda e'lon qilinmaydi. Shu sababli maqolada taxminiy raqamlar keltirilmaydi. Biroq agregatsiyalangan va maxfiy mazmunni oshkor qilmaydigan ochiq ko'rsatkichlarning yo'qligi moliyaviy razvedka samaradorligini baholashni qiyinlashtiradi. Kelgusida yillik ochiq hisobotlarda kelib tushgan xabarlar soni, tahlil qilingan xabarlar ulushi, tarqatilgan tahliliy mahsulotlar soni, o'rtacha tahlil muddati va ularning vakolatli organlar faoliyatidagi natijadorligi umumlashtirilgan holda e'lon qilinishi maqsadga muvofiq.

FATF standartlari moliyaviy razvedka bo'linmasi uchun yagona tashkiliy modelni majburan belgilamaydi. U ma'muriy, huquqni muhofaza qiluvchi, sud yoki boshqa tizim doirasida tashkil etilishi mumkin. Hal qiluvchi talab asosiy funksiyalarni samarali va mustaqil bajarish imkoniyatidir. Shu bois xorijiy tajribani baholashda "qaysi model afzal?" degan savoldan ko'ra, "tashkiliy modeldan qat'i nazar, qaysi huquqiy kafolatlar zarur?" degan savol ilmiy jihatdan mazmunliroqdir.

Moliyaviy razvedka bo'linmalari o'rtasida axborotni tezkor va samarali almashish, keng axborot manbalariga kirish, olingan ma'lumotni himoya qilish hamda undan ruxsat etilgan maqsadda foydalanish zamonaviy hamkorlikning asosiy shartlaridir. FATFning axborot almashinuvi standartlari milliy va xalqaro darajadagi hamkorlikda maxfiylik, maqsadlilik va ruxsat doirasiga rioya etishni talab qiladi [14]. Bu talablar milliy idoralararo almashinuv uchun ham ahamiyatli: ma'lumotdan faqat xizmat zarurati doirasida foydalanish, keyingi tarqatish uchun oldindan rozilik olish va barcha ishtirokchilar uchun teng axborot xavfsizligi standartlarini belgilash mumkin.

Yevropa Ittifoqining 2024-yilda qabul qilingan AML paketi sanalar nuqtayi nazaridan aniq talqin qilinishi lozim. AMLni tashkil etuvchi Regulation (EU) 2024/1620 2024-yil 31-mayda qabul qilingan, 2024-yil 26-iyunda kuchga kirgan va asosiy qoidalari 2025-yil 1-iyuldan qo'llanishi belgilangan [15]. Regulation (EU) 2024/1624 esa majburiyat yuklangan subyektlarning mijozni tekshirish, ma'lumot yig'ish va ichki nazorat choralari bo'yicha yagona qoidalarni belgilaydi; u umumiy tartibda 2027-yil 10-iyuldan,

ayrim subyektlar bo'yicha 2029-yil 10-iyuldan qo'llanishi nazarda tutilgan [16]. Qabul qilingan hujjatni darhol to'liq ishlayotgan model sifatida talqin qilish ilmiy aniqlikka putur yetkazadi.

Xorijiy standartlar moliyaviy razvedka samaradorligini kelib tushgan xabarlar yoki yuborilgan mahsulotlar soni bilangina o'lchash noto'g'ri ekanini ko'rsatadi. FATF metodologiyasidagi 6-Bevosita natija moliyaviy razvedka va boshqa tegishli ma'lumotlardan vakolatli organlar JDL/TMQK hamda predikat jinoyatlarni tergov qilishda qay darajada foydalanayotganini baholaydi [17]. Demak, tahliliy mahsulotning dolzarbligi, aniqligi, o'z vaqtida yetkazilishi va amaliy qarorga aylanish qobiliyati asosiy sifat mezonlari bo'lishi kerak.

Milliy tizimda "axborot qancha ko'p bo'lsa, samaradorlik shuncha yuqori bo'ladi" degan qarashdan voz kechish lozim. Sifatsiz, takroriy yoki kontekstsiz xabarlar tahliliy resursni band etadi va haqiqiy xavf belgilarini ko'rishni qiyinlashtiradi. Riskka asoslangan nazorat resurslarni yuqori xavfli holatlarga yo'naltirish, past xavfli vaziyatlarda esa mutanosib choralarni qo'llashni talab qiladi [18]. Milliy xavflarni baholash metodologiyasi ham xavflarni aniqlash, tahlil qilish va ustuvorlashtirishni resurslarni taqsimlashning boshlang'ich nuqtasi deb belgilaydi [19].

Doktrinal adabiyot ham shunga yaqin xulosaga olib keladi. M. Levi va P. Reuter jinoiy daromadlarga qarshi moliyaviy nazorat tizimi global, institutsional va axborotga tayanadigan tus olganini ko'rsatadi [20]. B. Unger va F. van Waarden qoidaga asoslangan yondashuv ko'p, lekin kam qiymatli xabarlar oqimini keltirib chiqarishi, riskka asoslangan yondashuv esa ma'lumot sifatini oshirish imkonini berishini asoslaydi [21]. E. Takats ortiqcha xabar berish huquqini qo'llovchi organlar uchun axborot qiymatini pasaytirishini ko'rsatgan [22]. Bu qarashlar miqdoriy ko'rsatkich emas, tahliliy sifat va keyingi huquqiy natija ustuvor bo'lishi kerakligini tasdiqlaydi.

Aniqlangan kamchiliklar Qonunni shunchaki yangi vakolatlar bilan to'ldirish yetarli emasligini ko'rsatadi. Masala moliyaviy razvedka ma'lumotining huquqiy rejimini qonun darajasida yaxlit tartibga solishdadir. Shu nuqtayi nazardan, to'rtta asosiy yo'nalish ustuvor deb hisoblanadi.

Birinchi taklif – Qonunning asosiy tushunchalari qatoriga "shubhali operatsiya to'g'risidagi dastlabki xabar", "boyitilgan moliyaviy razvedka ma'lumoti" va "moliyaviy razvedka tahliliy mahsuloti" atamalarini kiritish. Birinchi tushuncha moliyaviy monitoring subyekti bildirgan professional shubhani, ikkinchisi qo'shimcha manbalar bilan to'ldirilgan axborot majmuini, uchinchisi esa tahlil natijasida yaratiladigan maxsus axborot hujjatini anglatishi kerak. Bunday yechim dastlabki xabarni tekshirilgan ma'lumot yoki dalil bilan asossiz tenglashtirishning oldini oladi.

Ikkinchi taklif – moliyaviy razvedka ma'lumotiga ishlov berishning to'liq siklini qonun darajasida belgilash. Bu sikl qabul qilish, ro'yxatga olish, dastlabki tekshirish, boyitish, operativ yoki strategik tahlil, tarqatish, saqlash, tuzatish va yo'q qilish bosqichlarini qamrab olishi kerak. Texnik tartib idoraviy hujjatlarda ochilishi mumkin, ammo har bir bosqichning maqsadi, asosiy mezonlari, mas'ul shaxslari va huquqiy kafolatlari qonunda ifodalanishi shart.

Uchinchi taklif - tarqatiladigan tahliliy mahsulotning maqomini va undan foydalanish chegaralarini aniq belgilash. Qonunda uning vakolatli organ mustaqil tekshirishi zarur bo'lgan maxsus tahliliy axborot ekani, o'z-o'zidan huquqbuzarlik faktini tasdiqlamasligi va protsessual dalilning o'rnini bosa olmasligi qayd etilishi lozim. Shu bilan birga, mahsulotni tarqatish qarorida qabul qiluvchi organ, yuborish maqsadi, qisqacha asos, maxfiylik darajasi, qayta tarqatish sharti va foydalanish cheklolari ko'rsatilishi kerak.

To'rtinchi taklif – maxfiylikka zarar yetkazmagan holda nazorat va hisobdorlik mexanizmlarini kuchaytirish. Maxsus vakolatli davlat organida axborotga kirish jurnali, noodatiy so'rovlarni avtomatik aniqlash, manfaatlar to'qnashuvini ma'lum qilish, xizmat tekshiruvini boshlash mezonlari hamda ruxsatsiz kirish, noqonuniy nusxa olish yoki oshkor qilish uchun ma'muriy javobgarlik aniq belgilanishi zarur. Idoralararo komissiya esa maxfiy ma'lumot mazmuniga aralashmagan holda xabarlar sifati, tahlil muddati, tarqatish natijadorligi va axborot xavfsizligi bo'yicha umumlashtirilgan monitoring yuritishi mumkin. Bunday agregatsiyalangan ochiq hisobot shaxsga oid ma'lumotlarni oshkor qilmaydi, ammo tizim samaradorligini baholash uchun zarur empirik asos yaratadi.

Taklif etilayotgan yondashuv maxsus vakolatli davlat organining operativ imkoniyatlarini cheklashni ko'zlamaydi. Aksincha, uning qarorlarini huquqiy jihatdan barqaror, asosli va tekshiriladigan qilishga qaratilgan. Axborot rejimining aniqligi xususiy sektor uchun ham muhim: xabar yuborgan subyekt ma'lumot qaysi maqsadda va qanday kafolatlar asosida ishlatilishini bilishi, shu bilan birga shubhali operatsiya to'g'risidagi xabar sirini qat'iy saqlashi kerak.

Moliyaviy razvedka bo'linmasining JDL/TMQK milliy tizimidagi o'rni faqat uning qaysi idoraga mansubligi bilan belgilanmaydi. Uning haqiqiy qiymati turli manbalardan kelgan katta hajmdagi ma'lumotni qonuniy, maqsadli va tezkor tahliliy mahsulotga aylantirish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun moliyaviy razvedka institutini rivojlantirishda yangi vakolatlar sonini ko'paytirishdan ko'ra, axborot vakolatlarining huquqiy chegaralarini aniq belgilash muhimroqdir.

Tadqiqot dastlabki shubhali operatsiya xabari, boyitilgan moliyaviy razvedka ma'lumoti va tarqatiladigan tahliliy mahsulot bir xil huquqiy maqomga ega emasligini ko'rsatdi. Tahliliy mahsulot maxsus ma'muriy-tahliliy axborot bo'lib, uni vakolatli organ mustaqil tekshirishi va tegishli protsessual shaklga o'tkazishi kerak. Uni dalil bilan avtomatik tenglashtirish preventiv monitoring bilan jinoyat-protsessual isbotlash o'rtasidagi huquqiy chegarani buzadi.

Moliyaviy razvedka ma'lumotining huquqiy rejimi kompleks bo'lib, bank siri, soliq siri, shaxsga doir ma'lumotlar, axborot xavfsizligi, tezkor-qidiruv faoliyati va jinoyat-protsessual dalillar bilan tutashadi. Biroq ushbu rejimning tashkiliy va preventiv yadrosi ma'muriy-huquqiy tabiatga ega. Qonuniylik, maqsadlilik, zarurlik, mutanosiblik, maxfiylik va tekshiriluvchanlik ushbu rejimning tayanch tamoyillari bo'lishi kerak.

Shu asosda Qonunda uch pog'onali tushunchalar modelini belgilash, ma'lumotga ishlov berishning to'liq siklini mustahkamlash, tarqatiladigan mahsulot maqomini aniqlashtirish, shuningdek nazorat va hisobdorlik mexanizmlarini kuchaytirish taklif qilindi. Bunday choralar moliyaviy razvedkaning tezkor samaradorligi bilan ma'muriy qonuniylik va axborot huquqlarini himoya qilish o'rtasidagi zarur muvozanatni ta'minlaydi.

IQTIBOSLAR/CHOCKI/REFERENCES:

1. Financial Action Task Force. The FATF Recommendations. URL: <https://www.fatf-gafi.org/en/publications/Fatfrecommendations/Fatf-recommendations.html>
2. O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 26-avgustdagi "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi 660-II-son Qonuni. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-283717>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-iyundagi PF-6252-son "O'zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish milliy tizimini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. URL: <https://lex.uz/docs/-5482727>
4. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi O'RQ-547-son Qonuni. URL: <https://lex.uz/docs/-4396419>
5. O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 30-avgustdagi "Bank siri to'g'risida"gi 530-II-son Qonuni. URL: <https://lex.uz/docs/41760>
6. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. URL: <https://lex.uz/docs/-4674902>
7. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-apreldagi "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi O'RQ-764-son Qonuni. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-5960604>
8. Egmont Group of Financial Intelligence Units. Principles for Information Exchange Between Financial Intelligence Units for Money Laundering and Terrorism Financing Cases. April 2023. URL: https://egmontgroup.org/wp-content/uploads/2022/07/2.-Principles-Information-Exchange-With-Glossary_April2023.pdf
9. Directive (EU) 2024/1640 of the European Parliament and of the Council of 31 May 2024 on the mechanisms to be put in place by the Member States for the prevention of the use of the financial system for the purposes of money laundering or terrorist financing. URL: <https://eur-lex.europa.eu/eli/dir/2024/1640/oj/eng>

10. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2018-yil 24-avgustdagi 24-son "Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarori. URL: <https://lex.uz/docs/3895986>
11. Egmont Group of Financial Intelligence Units. Operational Guidance for FIU Activities and the Exchange of Information. URL: https://egmontgroup.org/wp-content/uploads/2021/09/Egmont_Group_of_Financial_Intelligence_Units_Operational_Guidance_for_FIU_Activities_and_the_Exchange_of_Information.pdf
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-sentabrdagi PQ-3947-son "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurash bo'yicha idoralararo komissiyani tashkil etish to'g'risida"gi qarori. URL: <https://lex.uz/docs/-3912609>
13. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi rasmiy veb-sayti. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti haqida ma'lumot. URL: <https://www.prokuratura.uz/>.
14. Financial Action Task Force. Consolidated FATF Standards on Information Sharing. URL: <https://www.fatf-gafi.org/en/publications/Fatfrecommendations/Consolidated-fatf-standards-information-sharing.html>
15. Regulation (EU) 2024/1620 of the European Parliament and of the Council of 31 May 2024 establishing the Authority for Anti-Money Laundering and Countering the Financing of Terrorism. URL: <https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2024/1620/oj/eng>
16. Regulation (EU) 2024/1624 of the European Parliament and of the Council of 31 May 2024 on the prevention of the use of the financial system for the purposes of money laundering or terrorist financing. URL: <https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2024/1624/oj/eng>
17. Financial Action Task Force. Methodology for Assessing Technical Compliance with the FATF Recommendations and the Effectiveness of AML/CFT/CPF Systems. Updated December 2025. URL: <https://www.fatf-gafi.org/en/publications/Mutualevaluations/Fatf-methodology.html>
18. Financial Action Task Force. Guidance on Risk-Based Supervision. Paris, 2021. URL: <https://www.fatf-gafi.org/en/publications/Fatfrecommendations/Guidance-rba-supervision.html>
19. Financial Action Task Force. Money Laundering National Risk Assessment Guidance. Paris, 2024. URL: <https://www.fatf-gafi.org/en/publications/Methodsandtrends/Money-laundering-national-risk-assessment-guidance.html>
20. Levi M., Reuter P. Money Laundering // Crime and Justice. 2006. Vol. 34. P. 289-375. URL: <https://www.ojp.gov/ncjrs/virtual-library/abstracts/money-laundering-crime-and-justice-review-researchvolume-34-p-289>
21. Unger B., van Waarden F. How to Dodge Drowning in Data? Rule- and Risk-Based Anti-Money Laundering Policies Compared. Utrecht University, 2013. URL: <https://research-portal.uu.nl/en/publications/how-to-dodge-drowning-in-data-rule-and-risk-based-anti-money-laun>
22. Takats E. A Theory of "Crying Wolf": The Economics of Money Laundering Enforcement. IMF Working Paper WP/07/81. 2007. URL: <https://www.imf.org/en/publications/wp/issues/2016/12/31/a-theory-of-crying-wolf-the-economics-of-money-laundering-enforcement-20623>

XURRAMOV E'zozbek Baxron o'g'liO'zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Qonunchilik va huquqiy
siyosat instituti tayanch doktoranti
E-mail: ezozbekxurramov@gmail.com

TADBIRKORLIK FAOLIYATINI KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH: TUSHUNCHA VA MOHIYAT

Iqtibos keltirish uchun (для цитирования, for citation): XURRAMOV E.B. Tadbirkorlik faoliyatini konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish: tushuncha va mohiyat // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 4 (2026) B. 44-53.

4 (2026) DOI <https://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/4-005>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola tadbirkorlik faoliyatini konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solishning nazariy-huquqiy tabiatini, uning sohaviy tartibga solish bilan nisbatini hamda davlatning iqtisodiy erkinlikni ta'minlashdagi konstitutsiyaviy majburiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolaning maqsadi tadbirkorlikni konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish tushunchasini aniqlashtirish, uning tarkibiy elementlarini tizimlashtirish va davlat aralashuvining huquqiy chegaralarini asoslashdan iborat. Maqolada formal-yuridik, tizimli, qiyosiy-huquqiy va tahliliy metodlardan foydalanilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2023-yilgi tahriri, tadbirkorlikka oid milliy qonunchilik, xorijiy konstitutsiyaviy tajriba, so'nggi ilmiy tadqiqotlar, rasmiy statistika hamda sud amaliyoti o'zaro bog'liq holda tahlil qilingan. Maqolada tadbirkorlik faoliyatini konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solishning normativ, institutsional va protsessual elementlardan iborat uch tarkibli modeli taklif etildi. Ilmiy yangilik davlatning tadbirkorlikka nisbatan konstitutsiyaviy vazifasini faqat noqonuniy aralashuvdan tiyilish majburiyati bilan cheklamasdan, halol raqobat, mulk daxlsizligi, huquqiy aniqlik va samarali sud himoyasini ta'minlashga qaratilgan ijobiy majburiyat sifatida asoslashda namoyon bo'ladi. Shuningdek, davlat aralashuvini baholash uchun qonuniy asos, qonuniy maqsad, zarurat, mutanosiblik va sud nazoratidan iborat mezonlar tizimi taklif qilinadi. Olingan xulosalar tadbirkorlik qonunchiligini takomillashtirish, nazorat vakolatlarini qo'llash chegaralarini aniqlash va sud amaliyotida konstitutsiyaviy kafolatlarining bevosita ta'sirini kuchaytirishda qo'llanishi mumkin.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, konstitutsiyaviy huquq, konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish, iqtisodiy erkinlik, mulk huquqi, huquqiy tartibga solish, sud nazorati, kafolat.

ХУРРАМОВ ЭъзозбекДокторант Института законодательства
и правовой политики при
Президенте Республики Узбекистан
E-mail: ezozbekxurramov@gmail.com

КОНСТИТУЦИОННО-ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ: ПОНЯТИЕ И СУЩНОСТЬ

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена теоретико-правовой природе конституционно-правового регулирования предпринимательской деятельности, его соотношению с отраслевым регулированием, а также

конституционным обязанностям государства по обеспечению экономической свободы. Цель статьи состоит в уточнении понятия конституционно-правового регулирования предпринимательства, систематизации его структурных элементов и обосновании правовых пределов государственного вмешательства. Используются формально-юридический, системный, сравнительно-правовой и аналитический методы. Во взаимосвязи проанализированы Конституция Республики Узбекистан в редакции 2023 года, национальное законодательство о предпринимательстве, зарубежный конституционный опыт, новейшие научные исследования, официальная статистика и судебная практика. В результате предложена трехкомпонентная модель конституционно-правового регулирования предпринимательской деятельности, включающая нормативный, институциональный и процессуальный элементы. Научная новизна выражается в обосновании того, что конституционная обязанность государства в отношении предпринимательства не исчерпывается воздержанием от незаконного вмешательства, а включает позитивную обязанность обеспечивать добросовестную конкуренцию, неприкосновенность собственности, правовую определенность и эффективную судебную защиту. Для оценки государственного вмешательства предложена система критериев, включающая законное основание, легитимную цель, необходимость, соразмерность и судебный контроль. Полученные выводы могут быть использованы при совершенствовании предпринимательского законодательства, определении пределов контрольных полномочий и усилении непосредственного действия конституционных гарантий в судебной практике.

Ключевые слова: предпринимательство, конституционное право, конституционно-правовое регулирование, экономическая свобода, право собственности, правовое регулирование, судебный контроль, гарантии

EZOZBEK Khurramov

PhD student at the Institute of
Legislation and Legal Policy under the
President of the Republic of Uzbekistan
E-mail: ezozbekxurramov@gmail.com

CONSTITUTIONAL AND LEGAL REGULATION OF ENTREPRENEURIAL ACTIVITY: CONCEPT AND ESSENCE

ANNOTATION

The article examines the theoretical and legal nature of constitutional regulation of entrepreneurial activity, its relationship with sectoral regulation, and the constitutional duties of the state in safeguarding economic freedom. The purpose of the study is to clarify the concept of constitutional and legal regulation of entrepreneurship, systematize its structural elements, and substantiate the legal limits of state interference. The research applies formal legal, systemic, comparative legal, and analytical methods. The 2023 Constitution of the Republic of Uzbekistan, national entrepreneurship legislation, foreign constitutional experience, recent scholarly studies, official statistics, and judicial practice are examined in an interconnected manner. The study proposes a three-component model of constitutional regulation of entrepreneurial activity consisting of normative, institutional, and procedural elements. Its scientific novelty lies in substantiating that the state's constitutional duty toward entrepreneurship is not limited to refraining from unlawful interference but also includes a positive obligation to ensure fair competition, protection of property, legal certainty, and effective judicial protection. A set of criteria for assessing state interference is also proposed: a lawful basis, a legitimate aim, necessity, proportionality, and judicial review. The findings may be used to improve entrepreneurship legislation, define the limits of supervisory powers, and strengthen the direct effect of constitutional guarantees in judicial practice.

Keywords: entrepreneurship, constitutional law, constitutional and legal regulation, economic freedom, property rights, legal regulation, judicial review, guarantees

O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tadbirkorlikning roli iqtisodiyotni erkinlashtirish, xususiy mulkchilikni kengaytirish va bozor munosabatlarini chuqurlashtirish siyosati ta'sirida tobora ortib bormoqda. Tadbirkorlik ushbu siyosatning muhim tayanchi bo'lgani sababli, uning huquqiy asoslari hamda konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish mexanizmlarini ilmiy tahlil qilish alohida ahamiyatga ega.

Ilmiy adabiyotlarda tadbirkorlikni konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish ko'pincha umumiy iqtisodiy erkinlik doirasida yoritilib, davlatning tartibga solish vakolati bilan tadbirkorlik erkinligi o'rtasidagi chegara yetarlicha ochib berilmaydi. Xususan, davlat aralashuvining qonuniy maqsadi, mutanosibligi va sud nazoratiga ochiqqligini baholashning yagona mezonlari to'liq shakllanmagan. 2023-yilgi yangi tahrirdagi Konstitutsiyada iqtisodiy erkinlik, xususiy mulk, halol raqobat va qulay ishbilarmonlik muhitini ta'minlash bo'yicha davlat majburiyatlari kuchaytirilgan bo'lsa-da, ushbu normalarni amaliy huquqiy mezonlarga aylantirish masalasi yetarlicha tadqiq etilmagan. Shu bois maqola tadbirkorlikni konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solishning mazmuni, asosiy elementlari va davlat aralashuvining chegaralarini yaxlit tizimda asoslashga qaratilgan.

Tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy erkinlikning ifodasi bo'lish bilan birga, shaxsning tashabbus ko'rsatishi, mulkka egalik qilishi va undan foydalanishi, bozor talablariga mos mahsulotlar ishlab chiqarishi hamda xizmatlar ko'rsatishi uchun huquqiy imkoniyatdir. Shu sababli bu sohani tartibga solish, avvalo, konstitutsiyaviy asoslarga tayanishi lozim. Konstitutsiya iqtisodiy faoliyat erkinligi, mulk daxlsizligi, tadbirkorlik bilan shug'ullanish va halol raqobat uchun zarur shart-sharoitlarni belgilovchi oliy huquqiy asos vazifasini bajaradi [1].

Huquqiy tartibga solish jamiyatda mavjud turli manfaatlar, ehtiyojlar va qarama-qarshiliklarni muayyan huquqiy mezonlar asosida uyg'unlashtirish, nizolarning oldini olish va ularni hal etishga xizmat qiladi. Uning samaradorligi qo'llaniladigan huquqiy vositalarning tegishli ijtimoiy munosabatlarning xususiyatiga mosligiga bog'liq. Shu nuqtai nazardan, konstitutsiyaviy va sohaviy tartibga solish o'zaro bog'liq bo'lsa-da, ularning vazifasi, huquqiy vositalari va tartibga solish darajasi farqlanadi.

O.N. Shupitskaya konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solishni tabiiy-huquqiy yondashuv asosida tahlil qilib, uni ijtimoiy ong, huquqiy madaniyat va huquq ijodkorligi bilan bog'liq hodisa sifatida baholaydi [4]. A.V. Yurkovskiy esa mazkur tushunchani amaldagi huquq nuqtai nazaridan yoritib, huquq normalari va boshqa yuridik vositalar orqali ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan faoliyat sifatida izohlaydi [5]. Ushbu yondashuvlar bir-birini inkor etmaydi, balki konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solishning turli jihatlarini ochib beradi. Birinchi yondashuvda konstitutsiyaviy qadriyatlar va huquqiy ong ustuvor bo'lsa, ikkinchisida normaning yuridik kuchi, huquqiy vositalar va davlat vakolatlariga e'tibor qaratiladi. Tadbirkorlik munosabatlarini tushuntirishda har ikki yondashuvning uyg'unligi muhim, chunki iqtisodiy erkinlik bir tomondan Konstitutsiyada e'tirof etilgan qadriyat, ikkinchi tomondan esa aniq huquqiy tartib-taomillar va himoya vositalari orqali amalga oshiriladigan huquqdir.

Konstitutsiyaviy huquq nazariyasida Robert Alexy huquqlarni cheklash va ular o'rtasidagi muvozanatni aniqlashda mutanosiblik tamoyiliga alohida o'rin beradi [6]. Aharon Barak ham konstitutsiyaviy huquqlarni cheklovchi choralarni baholashda maqsadga muvofiqlik, zarurat va mutanosiblik mezonlarini asosiy vosita sifatida ko'rsatadi [7]. Ushbu nazariy yondashuvlarni tadbirkorlik faoliyatiga tatbiq etish davlatning cheklovchi qarorini faqat tegishli vakolat mavjudligi bilan asoslash yetarli emasligini ko'rsatadi. Bunday qaror qonuniy maqsadga xizmat qilishi, zarur bo'lishi, ko'zlangan maqsadga nisbatan mutanosib bo'lishi va tadbirkor zimmasiga ortiqcha huquqiy yoki ma'muriy yuk tushirmasligi lozim.

Konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish ijtimoiy munosabatlarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va konstitutsiyaviy huquq normalarida belgilangan tamoyillar asosida tartibga solish tizimi sifatida tushuniladi. U jamiyatdagi asosiy siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarning oliy huquqiy doirasini, davlat hokimiyati faoliyatining asoslarini, fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini hamda shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi asosiy munosabatlarni belgilaydi. Milliy konstitutsiyaviy huquq adabiyotlarida ham Konstitutsiyaning oliyligi va bevosita amal qilishi sohaviy huquq normalarining mazmuni va yo'nalishini belgilovchi huquqiy asos sifatida talqin etiladi [2, 3].

Konstitutsiyaviy va sohaviy tartibga solish o'rtasidagi asosiy farq ularning tartibga solish darajasida namoyon bo'ladi. Konstitutsiyaviy normalar davlat organlarining vakolatlari, asosiy huquq va erkinliklar, iqtisodiy faoliyat erkinligi, xususiy mulk, raqobat va davlat aralashuvining umumiy chegaralarini belgilaydi. Sohaviy huquq esa ushbu tamoyillarni aniq huquqiy munosabatlarda amalga oshiradi. Jumladan, fuqarolik, mehnat, moliya, soliq va tadbirkorlik munosabatlari kodekslar, maxsus qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar orqali batafsil tartibga solinadi. "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonun, Soliq kodeksi, Bojxona kodeksi, Fuqarolik va Mehnat kodekslari shunday sohaviy tartibga solish vositalariga kiradi.

Tadbirkorlik sohasida bu ikki daraja ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Konstitutsiyaviy normalar iqtisodiy tashabbus, mulk huquqi, tadbirkorlik va raqobat erkinligining umumiy kafolatlarini belgilasa, sohaviy qonunchilik soliq, kredit, mehnat, bojxona, litsenziyalash, texnik talablar va boshqa aniq munosabatlarni tartibga soladi. Shu sababli sohaviy qonunchilik konstitutsiyaviy kafolatlarning amaliy ifodasi sifatida qaralishi mumkin.

Konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solishning ustuvorligi Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchi va bevosita amal qilishi bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasiga ko'ra, Konstitutsiya mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi [1]. Binobarin, tadbirkorlik munosabatlarini tartibga soluvchi barcha normativ-huquqiy hujjatlar ham konstitutsiyaviy tamoyillarga muvofiq bo'lishi lozim. Ushbu ustuvorlik faqat Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchi bilan cheklanmay, huquqiy davlat, ijtimoiy adolat, iqtisodiy erkinlik va tadbirkorlik tashabbusi kabi konstitutsiyaviy qadriyatlarning butun huquqiy tizimga ta'sirida ham namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-maydagi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-328-son Qonunning 3-moddasida tadbirkorlik qonunchilikka muvofiq, tavakkal va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyati sifatida belgilangan [8]. Mazkur ta'rif tadbirkorlikning bir necha asosiy huquqiy belgilarini ajratish imkonini beradi. Birinchidan, tadbirkorlik tashabbuskorlik va mustaqillikka asoslanadi. Ikkinchidan, tadbirkor o'z faoliyati bilan bog'liq huquqiy, moliyaviy va bozor tavakkalchiligini zimmasiga oladi hamda uning oqibatlari uchun javob beradi. Uchinchidan, tadbirkorlik daromad olishga qaratilgan bo'lsa-da, ushbu maqsadga faqat qonuniy vositalar orqali erishilishi mumkin. Tadbirkorlik subyekti o'z mulkini mustaqil boshqaradi hamda soliqlar va qonunda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajaradi.

Mazkur belgilar tadbirkorlikning xususiy-huquqiy mazmunini ifodalash bilan birga, uning konstitutsiyaviy ahamiyatga ega ijtimoiy-iqtisodiy institut ekanini ham ko'rsatadi. Tadbirkorlik davlat iqtisodiy siyosati bilan bevosita bog'liq bo'lib, davlat uning huquqiy asoslarini yaratadi, tadbirkorlik tashabbusini qo'llab-quvvatlaydi, mulkiy huquqlarni himoya qiladi va halol raqobat uchun zarur muhitni ta'minlaydi. Shu jihatdan tadbirkorlikka oid munosabatlar nafaqat iqtisodiy va fuqarolik qonunchiligi, balki konstitutsiyaviy normalarning ham tartibga solish obyekti hisoblanadi.

Tadbirkorlik subyekting konstitutsiyaviy maqomi huquqlar bilan bir qatorda majburiyatlarni ham qamrab oladi. Tadbirkor qonun talablariga rioya etishi, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni amalga oshirishi, mehnat va ekologik talablarni bajarishi lozim. Ayni paytda, davlat tadbirkorlik faoliyatiga noqonuniy aralashmasligi va uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashi kerak. "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning 34-moddasida davlat organlari va boshqa tashkilotlarning qonuniy tadbirkorlik faoliyatiga aralashishi taqiqlangani ushbu konstitutsiyaviy talabning sohaviy ifodasidir [8].

Tadbirkorlik erkinligining moddiy asosini mulk huquqi tashkil etadi. Tadbirkor uchun mulk faqat ishlab chiqarish vositasi emas, balki iqtisodiy mustaqillik va tashabbusning asosiy shartidir. Shu sababli xususiy mulkning tan olinishi, daxlsizligi va sud orqali himoya qilinishi barqaror tadbirkorlik muhitining muhim kafolati hisoblanadi.

Tadbirkorlikrivojiningyanabirasosiyshartiraqobatmuhitidir.Raqobatishlabchiqarishsamaradorligini oshirish, iste'molchilar talabini qondirish, narxlarning iqtisodiy asosda shakllanishi, monopolizm

va sun'iy to'siqlarning oldini olishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasida davlatning bozor munosabatlarini rivojlantirish, halol raqobat uchun sharoit yaratish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish vazifalari belgilangan. Ushbu konstitutsiyaviy qoida tadbirkorlar uchun teng sharoit yaratish va yangi subyektlarning bozorga kirishini ta'minlashni ham nazarda tutadi. Davlat iqtisodiyotni tartibga solish va nazorat qilish vakolatiga ega bo'lsa-da, bunday faoliyat iqtisodiy erkinlikni asossiz cheklamasligi kerak.

Davlat nazoratini tadbirkorlik erkinligi bilan muvozanatlashtirishga qaratilgan yondashuvlar so'nggi islohotlarda ham kuzatiladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-noyabrdagi PF-184-son Farmoni bilan "Xavfni tahlil qilish" elektron tizimi joriy etildi. Mazkur tizim 2025-yildan tadbirkorlik subyektlarini xavf darajasiga ko'ra tasniflash va xavfi past subyektlar faoliyatida tekshiruv o'tkazmaslikni nazarda tutadi [9]. Mazkur mexanizm davlatning nazorat vakolatini saqlagan holda, uning qo'llanishini tadbirkorga ortiqcha ma'muriy yuk tushirmaslik talabi bilan uyg'unlashtiradi. Bu esa davlat aralashuvining zarurati va mutanosibligi haqidagi nazariy mezonlarning amaliy ifodasidir.

Tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi salmog'i uning huquqlarini konstitutsiyaviy darajada samarali himoya qilish zaruratini yanada kuchaytiradi. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotiga ko'ra, 2024-yilda kichik tadbirkorlik subyektlari 753 226,9 mlrd so'mlik qo'shilgan qiymat yaratgan bo'lib, bu iqtisodiyotdagi yalpi qo'shilgan qiymatning 54,3 foizini tashkil etgan [10]. Ushbu ko'rsatkich tadbirkorlik huquqining buzilishi faqat alohida xo'jalik yurituvchi subyektning xususiy manfaatiga ta'sir qilish bilan cheklanmay, ishlab chiqarish, bandlik va davlat daromadlariga ham tizimli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli davlatning cheklovchi choralarini baholashda nafaqat ma'muriy maqsad, balki tadbirkorlikning iqtisodiy tizimdagi real o'rni ham e'tiborga olinishi zarur. Biroq bitta iqtisodiy ko'rsatkich tadbirkorlik erkinligining huquqiy holati haqida to'liq xulosa chiqarish uchun yetarli emas; uni murojaatlar statistikasi va sud amaliyoti bilan birgalikda baholash maqsadga muvofiq.

Biznes-ombudsmanning 2024-yildagi faoliyati institutsional himoya vositalarining amaliy ahamiyatini ko'rsatadi. Yil davomida tadbirkorlardan 9 127 ta murojaat kelib tushgan va ularning 51 foizi bo'yicha tadbirkorlarning huquqlari tiklangan. Murojaatlarning 12 foizi soliq, 11 foizi yer, kadastr va arxitektura, 10 foizi bank-kredit, 10 foizi tekshiruvlar, 9 foizi esa sud qarorlari ijrosi bilan bog'liq bo'lgan [11]. Ushbu besh yo'nalish jami murojaatlarning 52 foizini tashkil etgani davlatning tartibga solish vakolatlari faol qo'llanadigan sohalarida nizolar ko'proq yuzaga kelishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, huquqlar tiklangan murojaatlarning 51 foizlik ulushini qolgan murojaatlar asossiz bo'lgan yoki ular bo'yicha tadbirkorlarning huquqlari himoya qilinmagan, degan xulosani anglatmaydi, chunki har bir murojaatning huquqiy tabiati va yakuni alohida baholanishi zarur. Ushbu ma'lumotlar konstitutsiyaviy kafolatlarning samaradorligi faqat normativ taqiq mavjudligi bilan emas, balki huquqlarni amalda tiklay oladigan institutsional va protsessual mexanizmlarning ishlashi bilan ham belgilanishini ko'rsatadi.

Tadbirkorlik erkinligining amalda ro'yobga chiqishi davlatning faqat noqonuniy aralashuvdan tiyilishi bilan cheklanmaydi. Davlat qulay va barqaror iqtisodiy muhit yaratishga qaratilgan ijobiy choralarni ham amalga oshirishi zarur. Soliq yengilliklari, imtiyozli kreditlash mexanizmlari, maqsadli subsidiya dasturlari va ishlab chiqarish infratuzilmasidan qulay foydalanish imkoniyatlari shunday ijtimoiy-iqtisodiy kafolatlarga kiradi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ushbu vositalar bevosita sanab o'tilmagan bo'lsa-da, ular 65–68-moddalarda mustahkamlangan bozor munosabatlari, iqtisodiy erkinlik, raqobat va mulk huquqining daxlsizligi kabi konstitutsiyaviy tamoyillardan kelib chiqadigan huquqiy mexanizmlar sifatida rivojlantirilmoqda.

Tadbirkorlikni konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solishning normativ asosini, avvalo, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining iqtisodiy munosabatlarga oid normalari tashkil etadi. Konstitutsiyaning 65-moddasida mulk shakllarining tengligi, huquqiy himoyasi va xususiy mulkning daxlsizligi kafolatlangan, 66-moddasida mulkdorning mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqi mustahkamlangan. 67-moddada esa qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta'minlash, iqtisodiy makon birligi hamda tovarlar, xizmatlar, mehnat va moliyaviy mablag'larning erkin harakatlanishi davlatning konstitutsiyaviy vazifasi sifatida belgilangan [1].

Mazkur konstitutsiyaviy tamoyillar tegishli sohaviy qonunlarda batafsil belgilangan. Jumladan, "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonun tadbirkorlik subyektlarining huquqiy maqomi, davlat organlari bilan munosabatlari va huquqlarini himoya qilish kafolatlarini belgilaydi. "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonun davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikning huquqiy asoslarini belgilaydi [12]. "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonun esa mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hamda himoya qilishning huquqiy mexanizmlarini belgilaydi [13]. Fuqarolik, Soliq va Bojxona kodekslari, "Raqobat to'g'risida"gi Qonun va boshqa sohaviy hujjatlar ushbu konstitutsiyaviy tamoyillarni aniq huquqiy munosabatlarda amalga oshiradi. Natijada konstitutsiyaviy darajada belgilangan iqtisodiy erkinlik, mulk daxlsizligi va halol raqobat kafolatlari sohaviy qonunchilik orqali amaliy huquqiy mexanizmlarga aylanadi.

Tadbirkorlik faoliyatini konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solishda konstitutsiyaviy nazorat muhim o'rin tutadi. U davlat organlari faoliyati va qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga muvofiqligini ta'minlab, iqtisodiy huquq va erkinliklarning buzilishiga yo'l qo'ymaslikka xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 132–133-moddalariga ko'ra, Konstitutsiyaviy sud normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga muvofiqligini ko'rib chiqadi. Shu bois tadbirkorlikka oid qonunlar, Prezident hujjatlari, Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar va mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlari Konstitutsiyaga zid bo'lmasligi lozim. Bunday nazorat mulk huquqi, iqtisodiy tashabbus va teng raqobat tamoyillarini normativ darajada himoya qiladi. Muayyan tadbirkorning buzilgan huquqlarini tiklash esa ma'muriy va iqtisodiy sudlar tomonidan amalga oshiriladi. Konstitutsiyaviy nazorat va odil sudlov tadbirkorlik huquqlarini himoya qiluvchi, o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi mexanizmlardir. Konstitutsiyaviy sudning ushbu sohadagi faoliyati iqtisodiy islohotlar va yangi huquqiy hujjatlarni amaliyotga joriy etish sharoitida alohida ahamiyat kasb etib, tadbirkorlikning konstitutsiyaviy asosda barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Konstitutsiyaviy kafolatlarning amalda ishlashi sud amaliyotida ham ko'rinadi. 2026-yil yanvarida Buxoro viloyatidagi "R.N.Z." fermer xo'jaligida o'tkazilgan soliq tekshiruvi bo'yicha quyi instansiya sudlari soliq organi xodimining harakatlarida qonun buzilishi mavjud emas, degan xulosaga kelgan. Biznes-ombudsmanning taftish shikoyati asosida Oliy sud ushbu qarorlarni bekor qilib, mansabdor shaxsga jarima qo'llagan [14]. Mazkur ish tartib-taomillarga rioya etish tadbirkorlik erkinligining mustaqil kafolati ekanini ko'rsatadi. Tekshiruv qonuniy maqsadga qaratilgan bo'lsa ham, vakolat yoki belgilangan tartib buzilsa, aralashuv qonuniy hisoblanmaydi. Mansabdor shaxsning javobgarlikka tortilishi esa buzilgan huquqni tiklash bilan birga, kelgusidagi huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Yana bir holatda, Vobkent tumanidagi oilaviy korxonaga Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-sentabrdagi 595-son qarori noto'g'ri qo'llanishi natijasida 1 mlrd so'm jarima belgilangan. Quyi instansiya sudlari tadbirkorning talablarini rad etgan bo'lsa-da, Oliy sudning 2026-yil 23-yanvardagi taftish qarori bilan sud hujjatlari bekor qilinib, soliq organining qarori haqiqiy emas deb topilgan [15]. Ushbu holatda qonun buzilishi tekshiruv tartibida emas, balki normaning mazmuni va qo'llanish doirasini noto'g'ri talqin qilishda namoyon bo'lgan. Normaga havola qilishning o'zi ma'muriy qarorning qonuniyligini tasdiqlamaydi. Sud norma qaysi munosabatga tatbiq etilganini, qarorning yetarli asoslantirilganini va moliyaviy yukning huquqiy asosini ham tekshirishi lozim. Huquqiy aniqlik va normani to'g'ri talqin qilish tadbirkorlik erkinligining muhim protsessual kafolatidir.

Mazkur ikki ish tadbirkorlik faoliyatiga noqonuniy aralashuvning turli ko'rinishlarini ko'rsatadi. Birinchi ishda tartib-taomil, ikkinchisida esa qo'llangan normaning mazmuni qonuniylik talabiga javob bermagan. Shu sababli sud nazorati ikki bosqichda amalga oshirilishi lozim: avvalo, davlat organining vakolati va belgilangan tartibga rioya etilgani, so'ng qarorning qonuniy maqsadi, zarurati, mutanosibligi va asoslantirilgani tekshiriladi. Bunday nazorat tadbirkorga noqonuniy qarorni bekor qildirish, normaning noto'g'ri qo'llanishi oqibatlarini bartaraf etish va mansabdor shaxs javobgarligini ta'minlash imkonini beradi.

Tadbirkorlik faoliyatini konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish tajribasi turli mamlakatlarda davlatning iqtisodiy siyosati, huquqiy tizimining xususiyatlari, mulk munosabatlariga yondashuvi va

iqtisodiy erkinlikni ta'minlash darajasiga qarab farqlanadi. Bu yo'nalishda AQSh, Germaniya, Fransiya va Rossiya Federatsiyasi kabi davlatlar ilg'or amaliyot va huquqiy mexanizmlarni shakllantirgan.

AQSh konstitutsiyaviy tizimida tadbirkorlik bozor iqtisodiyotining muhim asosi sifatida qaraladi. Konstitutsiyada iqtisodiy huquqlar alohida sanab o'tilmagan bo'lsa-da, Beshinchi tuzatish shaxsni tegishli huquqiy tartib-taomilsiz mulkidan mahrum etishni cheklaydi [16]. Sherman Act va Clayton Act esa raqobatni himoya qilish, monopollashuvni cheklash va iste'molchilar manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi [17, 18]. Tadbirkorlik erkinligi federal va shtatlar darajasidagi huquqiy mexanizmlar orqali himoya qilinadi.

Germaniya Asosiy Qonunining 12-moddasida kasb tanlash va kasbiy faoliyat erkinligi, 14-moddasida esa mulk huquqi kafolatlangan [19]. Ijtimoiy bozor iqtisodiyoti modeli iqtisodiy erkinlikni ijtimoiy adolat va barqarorlik bilan uyg'unlashtiradi. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi qonuniy va mutanosib bo'lishi ushbu modelning muhim talabidir.

Fransiyada iqtisodiy erkinliklarning konstitutsiyaviy asoslari 1789-yilgi Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasiga borib taqaladi. Uning 17-moddasi mulk huquqini himoya qiladi [20]. 1958-yilgi Konstitutsiyada tadbirkorlik erkinligi bevosita belgilanmagan bo'lsa-da, Konstitutsiyaviy kengash uni konstitutsiyaviy qadriyatlar orqali himoya qiladi. Davlat iqtisodiyotni faol tartibga solishi mumkin, biroq bu xususiy mulk, tadbirkorlik tashabbusi va halol raqobatni asossiz ravishda cheklamasligi lozim.

Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining 8-moddasida iqtisodiy makon birligi, tovarlar, xizmatlar va moliyaviy mablag'larning erkin harakati, raqobat hamda iqtisodiy faoliyat erkinligi e'tirof etilgan. 34-moddada esa har kimning o'z qobiliyati va mol-mulkidan tadbirkorlik hamda qonun bilan taqiqlanmagan boshqa iqtisodiy faoliyat uchun foydalanish huquqi mustahkamlangan [21]. Tadbirkorlar huquqlarini himoya qiluvchi ombudsman instituti normativ kafolatlarni institutsional himoya vositalari bilan to'ldiradi.

Qiyosiy tahlil mazkur davlatlar modellarida umumiy konstitutsiyaviy yondashuv mavjudligini ko'rsatadi. AQShda huquqiy tartib-taomil va sud nazorati, Germaniyada mutanosiblik va ijtimoiy bozor tamoyili, Fransiyada esa konstitutsiyaviy qadriyatlar hamda Konstitutsiyaviy kengash nazorati ustuvor ahamiyatga ega. Rossiyada esa iqtisodiy faoliyat erkinligi Konstitutsiyada bevosita ifodalangan. O'zbekiston uchun ushbu modellarni to'liq ko'chirish maqsadga muvofiq emas, aksincha, ularning milliy huquqiy tizimga mos elementlarini uyg'unlashtirish kerak. Shu nuqtai nazardan, Germaniyaning mutanosiblik va ijtimoiy bozor iqtisodiyotiga tayangan yondashuvi asosiy namuna bo'lishi mumkin. Buning sababi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65–67-moddalari ham iqtisodiy erkinlikni mulkning ijtimoiy mas'uliyati, halol raqobat va davlatning bozor uchun sharoit yaratish majburiyati bilan birga belgilashidir. Ayni paytda, AQSh tajribasidan ma'muriy aralashuv ustidan samarali sud nazorati va raqobatni himoya qilish vositalarini, Fransiya tajribasidan esa iqtisodiy qonunchilikni konstitutsiyaviy qadriyatlar asosida baholash usulini olish mumkin. Rossiya modelidagi bevosita konstitutsiyaviy kafolat O'zbekiston Konstitutsiyasida allaqachon mavjud. Shu sababli yangi umumiy kafolatlarni belgilashdan ko'ra, mavjud kafolatlarning huquqni qo'llash amaliyotidagi ta'sirini kuchaytirish muhimdir.

Tadbirkorlik faoliyatini konstitutsiyaviy-huquqiy tahlil qilish iqtisodiy munosabatlarni huquqiy normalar, institutlar va tamoyillar asosida konstitutsiyaviy mezonlar nuqtayi nazaridan baholashni nazarda tutadi. Bunda normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga muvofiqligi baholanadi hamda tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy erkinligi, huquq va manfaatlari konstitutsiyaviy jihatdan himoya qilinadi. Shu nuqtai nazardan, tadbirkorlik faoliyatini konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish o'zaro bog'liq vositalar tizimidir.

Mazkur maqoladagi tahlillar quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish imkonini beradi:

1. Tadbirkorlik faoliyatiga davlat aralashuvining konstitutsiyaviy-huquqiy mezonlarini sohaviy qonunchilikda aniq belgilash lozim. Amaldagi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-328-son Qonunning 34-moddasi davlat organlarining qonuniy tadbirkorlik faoliyatiga aralashishini taqiqlaydi, biroq bunday aralashuvning zarurati va mutanosibligini baholash mezonlarini batafsil ochib bermaydi. Shu sababli mazkur moddani cheklovning qonuniy maqsadga

xizmat qilishi, zarur va mutanosib bo'lishi hamda tadbirkorga ortiqcha huquqiy yoki moliyaviy yuk tushirmasligi haqidagi talablar bilan to'ldirish maqsadga muvofiq. Shuningdek, qaror qabul qilinishidan oldin tadbirkorga o'z vajlarini bildirish imkoniyati berilishi, cheklovchi qaror huquqiy va faktik asoslar bilan yozma ravishda asoslantirilishi, noqonuniy aralashuv oqibatida yetkazilgan zarar esa Qonunning 38-moddasi asosida qoplanishi lozim. Tegishli qonun loyihasini Adliya vazirligi, Biznes-ombudsman va Savdo-sanoat palatasi ishtirokida ishlab chiqib, belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasi orqali Oliy Majlisga kiritishi mumkin. Mazkur yondashuv ma'muriy organlar va sudlar uchun yagona baholash mezonini shakllantirib, huquqni qo'llashdagi tafovutlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

2. Tadbirkorlar va nazorat qiluvchi davlat organlari xodimlarining konstitutsiyaviy-huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan doimiy o'quv tizimini joriy etish zarur. Buning uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-184-son Farmoni 3-ilovasi 7-bandida nazarda tutilgan malaka oshirish mexanizmini takomillashtirib, nazorat qiluvchi organlar xodimlarining ushbu yo'nalishda yiliga kamida bir marta o'qitilishini belgilash taklif etiladi. O'quv dasturiga Konstitutsiyaning 65–67-moddalari, O'RQ-328-son Qonunning 34-moddasi, ma'muriy tartib-taomillar, tadbirkorlik subyektlarida tekshiruv o'tkazish tartibi hamda sud amaliyotida uchragan nizolar kiritilishi lozim. Dastur Biznes-ombudsman tomonidan Adliya vazirligi, Savdo-sanoat palatasi va tegishli nazorat organlari bilan hamkorlikda ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Tadbirkorlar uchun videodarslar, amaliy qo'llanmalar va huquqiy yo'riqnomalar tegishli elektron platformalarda bepul joylashtirilishi mumkin. Bunday tizim davlat xizmatchilarining qaror qabul qilishda konstitutsiyaviy chegaralarni oldindan hisobga olishini, tadbirkorlarning o'z huquqlarini samarali himoya qilish imkoniyatini kengaytiradi.

3. Tadbirkorlik huquqlariga oid ma'muriy va iqtisodiy sud amaliyotini muntazam umumlashtirish hamda ochiq elektron sharhlar bazasini shakllantirish lozim. Ushbu vazifaning asosiy ijrochisi sifatida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudini belgilash, Biznes-ombudsman, Adliya vazirligi va boshqa vakolatli organlarni esa tahliliy hamkor sifatida jalb etish maqsadga muvofiq. "Sudlar to'g'risida"gi O'RQ-703-son Qonunda Oliy sudning sud amaliyotini o'rganish va umumlashtirish vakolati mavjud bo'lgani sababli, mazkur taklifni amalga oshirish uchun yangi qonun qabul qilish zarur emas. Sud amaliyotini yig'ish, tahlil qilish va e'lon qilish tartibini Oliy sud Rayosatining tegishli qarori bilan belgilash mumkin. Elektron bazada bekor qilingan ma'muriy hujjatlar, ko'p uchraydigan qonunbuzilishlar, normani qo'llashdagi xatolar hamda huquqiy aniqlik, mutanosiblik, tinglanish huquqi va mulk daxlsizligiga oid sud xulosalari shaxsga doir ma'lumotlar oshkor qilinmagan holda tizimlashtirilishi lozim. Mazkur mexanizm sud amaliyotining bir xilligini kuchaytiradi, davlat organlari uchun amaliy huquqiy yo'nalish yaratadi va tadbirkorlik huquqlariga oid ilmiy tadqiqotlar uchun ishonchli empirik manba shakllantiradi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, ushbu maqola natijalari tadbirkorlik faoliyatini konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish faqat iqtisodiy erkinlikni e'tirof etuvchi normalar bilan cheklanmasligini ko'rsatdi. Uning samaradorligi normativ, institutsional va protsessual kafolatlarning o'zaro bog'liq ishlashiga bog'liq. Normativ kafolatlar iqtisodiy erkinlik, mulk daxlsizligi va halol raqobatni belgilasa, institutsional kafolatlar sudlar, Biznes-ombudsman va boshqa vakolatli organlar orqali ularning himoyasini ta'minlaydi. Protsessual kafolatlar esa davlat organlari qarorlarining qonuniy, asoslantirilgan va mutanosib bo'lishini talab qiladi.

Maqolada davlatning tadbirkorlik sohasidagi konstitutsiyaviy majburiyati ikki yo'nalishda namoyon bo'lishi asoslandi: birinchisi tadbirkorlik faoliyatiga noqonuniy aralashmaslik, ikkinchisi mulk daxlsizligi, halol raqobat, huquqiy aniqlik va samarali sud himoyasini ta'minlash. Sud amaliyoti ham davlat aralashuvining qonuniyligi faqat vakolat mavjudligi bilan belgilanmasligini ko'rsatdi. Bunda belgilangan tartibga rioya etilishi, qo'llangan normaning to'g'ri talqin qilinishi va qarorning yetarli huquqiy asosga ega bo'lishi ham baholanishi zarur.

Qiyosiy tahlil O'zbekiston uchun xorijiy modellarni aynan ko'chirish emas, balki ularning samarali jihatlarini milliy huquqiy tizimga moslashtirish zarurligini ko'rsatdi. Bunda Germaniyaning mutanosiblik yondashuvi, AQShning samarali sud nazorati va raqobatni himoya qilish vositalari hamda Fransiyaning konstitutsiyaviy qadriyatlar asosidagi nazorat tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Maqolaning umumiy natijasi shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda tadbirkorlik erkinligini ta'minlash uchun asosiy konstitutsiyaviy kafolatlar shakllangan. Hozirgi bosqichdagi ustuvor vazifa yangi umumiy kafolatlarni belgilashdan ko'ra, mavjud normalarni sohaviy qonunchilik, ma'muriy faoliyat va sud amaliyotida yagona mezonlar asosida qo'llashni ta'minlashdan iborat. Shu maqsadda davlat aralashuvining zarurati va mutanosibligini aniq belgilash, protsessual kafolatlarni kuchaytirish hamda sud amaliyotining izchilligini ta'minlash tadbirkorlik erkinligi huquqining amalda samarali himoya qilinishini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, tadbirkorlik faoliyatini konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish deganda Konstitutsiyada belgilangan iqtisodiy huquqlar, mulk huquqi va uning daxlsizligi, halol raqobat uchun teng shart-sharoitlar hamda davlatning iqtisodiyotni tartibga solish vakolatlari doirasida tadbirkorlik munosabatlarini huquqiy normalar, institutlar va tamoyillar orqali izchil tartibga solish tizimi tushuniladi. Bu ta'rif nazariy va amaliy jihatdan tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslarini belgilaydi, Konstitutsiya ustuvorligini ta'minlaydi va iqtisodiy islohotlar uchun barqaror huquqiy poydevor yaratadi. Shuningdek, u davlat iqtisodiy siyosatida qonuniylik, shaffoflik va tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

IQTIBOSLAR/CHOCKI/REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir). 30.04.2023. URL: <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. – Toshkent: Adolat, 2013. – 552 b.
3. Konstitutsiyaviy huquq: darslik / Mualliflar jamoasi. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2024. – 800 b.
4. Шупицкая О.Н. Конституционно-правовое регулирование: понятие и предмет // Современное право. – 2018. № 10. – С.28–33. URL: <https://sovpravo.press/stati/konstitucionno-pravovoe-regulirovanie-ponyatie-i-predmet/>
5. Юрковский А.В. Конституционно-правовое регулирование в позитивно-правовом смысле: понятие и признаки // Сибирский юридический вестник. – 2017. – № 1 (76). – С.50–62. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/konstitucionno-pravovoe-regulirovanie-v-pozitivno-pravovom-smysle-ponyatie-i-priznaki>
6. Alexy R. A Theory of Constitutional Rights / Trans. J. Rivers. – Oxford: Oxford University Press, 2002. – 462 p. URL: <https://books.google.com/books?hl=en&vid=ISBN0198258216>
7. Barak A. Proportionality: Constitutional Rights and Their Limitations. – Cambridge: Cambridge University Press, 2012. – 611 p. DOI: <https://doi.org/10.1017/CBO9781139035293>. URL: <https://www.cambridge.org/core/books/proportionality/6E9C523D5653FEE453068DEFECF4C4F5>
8. O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-maydagi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-328-son Qonuni. URL: <https://lex.uz/docs/-2006789>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-noyabrdagi PF-184-son "Tadbirkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7231780>
10. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. 2024-yilda iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat // Yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish, 2024-yil yakunlari. URL: https://stat.uz/img/01_-vvp_press-reliz-2024_uzb_p61471.pdf
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil. Biznes-ombudsmanning 2024-yil mobaynidagi faoliyatining asosiy yo'nalishlari xususida ma'lumot. URL: https://biznesombudsman.uz/ru/menu/work_done/
12. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi O'RQ-537-son Qonuni. URL: <https://lex.uz/docs/-4329270>
13. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598-son Qonuni. URL: <https://lex.uz/docs/-4664142>
14. "Daryo" internet-nashri. Buxorodagi fermer xo'jaligida noqonuniy soliq tekshiruvi o'tkazgan xodim jarimaga tortildi. 08.01.2026. URL: <https://daryo.uz/2026/01/08/buxorodagi-fermer-xo-jaligida-noqonuniy-soliq-tekshiruvi-otkazgan-xodim-jarimaga-tortildi/>
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil. Tadbirkorga jarima qo'llash to'g'risidagi qaror bekor qilindi. 11.02.2026. URL: <https://biznesvakil.uz/uz/news/2446>

16. Constitution of the United States, Fifth Amendment. U.S. Congress. URL: <https://constitution.congress.gov/constitution/amendment-5/>
17. Sherman Anti-Trust Act (1890). U.S. National Archives. URL: <https://www.archives.gov/milestone-documents/sherman-anti-trust-act>
18. Clayton Antitrust Act (1914). Legal Information Institute, Cornell Law School. URL: https://www.law.cornell.edu/wex/clayton_antitrust_act
19. Grundgesetz für die Bundesrepublik Deutschland. URL: <https://www.gesetze-im-internet.de/gg/BJNR000010949.html>
20. Declaration of the Rights of Man and of the Citizen of 1789. Presidency of the French Republic. URL: <https://www.elysee.fr/en/french-presidency/the-declaration-of-the-rights-of-man-and-of-the-citizen>
21. Constitution of the Russian Federation. URL: <https://duma.gov.ru/legislative/documents/constitution/>

SHOMUROTOV Ma'ruf Abdusamat o'g'li

Navoiy viloyat bojxona boshqarmasi bosh yuristkonsulti,
O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi
Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini
oshirish instituti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: shomurotovmf@gmail.com

PROKURATURA ORGANLARINING PARLAMENT OLIDAGI HISOBDO RLIGINING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Iqtibos keltirish uchun (для цитирования, for citation): SHOMUROTOV M.A. Prokuratura organlarining parlament oldidagi hisobdorligining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 4 (2026) B. 54-61.

 4 (2026) DOI <https://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/4-006>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola globallashuv va demokratik islohotlar davrida prokuratura organlarining davlat hokimiyati tizimidagi o'rnini hamda ularning hisobdorlik mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan. Prokuratura organlarining qonun ustuvorligini ta'minlash va inson huquqlarini himoya qilishdagi rolini tahlil qilinar ekan, tizimning samaradorligi bevosita uning mustaqilligi va hisobdorligi muvozanatiga bog'liq ekanligi ta'kidlanadi. Maqolani yozish jarayonida rasmiy-yuridik, qiyosiy-huquqiy, tizimli-tarkibiy va statistik metodlardan foydalanilgan.

Maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida prokuratura faoliyatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari, xususan, Bosh prokurorning Oliy Majlis Senati oldidagi hisobdorligi va parlament nazoratining ikki bosqichli mexanizmi atroflicha yoritilgan. Shuningdek, xalqaro tajriba (Janubiy Koreya, Gretsiya) va xalqaro tashkilotlar (BMT, IAP) standartlari asosida tizimdagi mavjud huquqiy bo'shliqlar ko'rsatib o'tilgan. Xususan, Harbiy va Transport prokuraturasi, Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va Majburiy ijro byurosining hisobdorlik tartibini qonun darajasida aniqlashtirish zarurati asoslangan.

Tahlil natijalariga ko'ra, "Prokuratura to'g'risida"gi qonunni yangi tahrirda qabul qilish, unda prokuratura organlarining hisobdorligini alohida bob sifatida mustahkamlash hamda prokuraturani aholiga xizmat qiluvchi, ochiq va hisobdor institutga aylantirish bo'yicha amaliy takliflar ilgari surilgan. Shu bilan birga, jamoatchilik va vakillik organlari oldidagi real hisobdorlik prokuratura mustaqilligining kafolati bo'lib, tizimni korrupsion bosimlardan himoya qilishi ilmiy asoslantirilgan.

Kalit so'zlar: prokuratura islohoti, prokuratura organlari, qonun ustuvorligi, hisobdorlik mexanizmi, mustaqillik, parlament nazorati, inson huquqlari.

ШОМУРОТОВ Маруф

Главный юрисконсульт Навоийского областного
управления таможенной службы,
Самостоятельный соискатель
Института переподготовки и повышения
квалификации юридических кадров при
Министерстве юстиции Республики Узбекистан
E-mail: shomurotovmf@gmail.com

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВЫХ ОСНОВ ПОДОТЧЁТНОСТИ ОРГАНОВ ПРОКУРАТУРЫ ПЕРЕД ПАРЛАМЕНТОМ

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена роли органов прокуратуры в системе государственной власти в условиях глобализации и демократических реформ, а также вопросам совершенствования механизмов их подотчетности. В ходе анализа роли органов прокуратуры в обеспечении верховенства закона и защите прав человека подчеркивается, что эффективность системы напрямую зависит от баланса между ее независимостью и подотчетностью. При написании статьи использовались формально-юридический, сравнительно-правовой, системно-структурный и статистический методы.

В статье подробно рассматриваются конституционно-правовые основы деятельности прокуратуры в условиях Нового Узбекистана, в частности, подотчетность Генерального прокурора Сенату Олий Мажлиса и двухступенчатый механизм парламентского контроля. Также на основе международного опыта (Южная Корея, Греция) и стандартов международных организаций (ООН, МАП) указаны существующие правовые пробелы в системе. В частности, обоснована необходимость уточнения на законодательном уровне порядка подотчетности военной и транспортной прокуратура, Департамент по борьбе с экономическими преступлениями и Бюро принудительного исполнения при Генеральной прокуратуре Республики Узбекистан.

13. X.R.Isanov Sun'iy intellekt tizimlari oshiqcha xavf manbayi sifatida: fors-major holati // Yurisprudensiya. – 2025. – 5-jild, 1-son. – B. 32–33. DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.1./VINX6590 // <https://yurisprudensiya.tsul.uz/index.php/yurisprudensiya/article/view/90>
14. Архипов, В. В., Наумов, В. Б. (2017). О некоторых вопросах теоретических оснований развития законодательства о робототехнике: аспекты воли и правосубъектности. Закон, 5, 157–170. https://zakon.ru/LibraryHome/Publication?_igZakon=True&_pubId=11526
15. Fuqarolik huquqi: Darslik. I qism. I.B.Zokirov; Mas'ul muharrir: H.Rahmonqulov: Qayta ishlangan va to'ldirilgan beshinchi nashr. –T.: TDYUI nashriyoti, 2009.// Fuqarolik huquqi: Darslik. I qism. Mualliflar jamoasi. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, prof. O.Oqyulovning umumiy taliriri ostida. - T.: TDYU nashriyoti. 2017.// Fuqarolik huquqiga kirish. Darslik. Oqyulov O., Yuldashev J.I., Imomov N.F., Yuridik adabiyotlar publish. Toshkent. <https://unilibrary.uz/literature/145352>
16. Raxmonov, T. (2025). O'zbekistonda sun'iy intellektning fuqarolik-huquqiy maqomini aniqlash masalalari. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 5(S/9), 449–454. <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N72>
17. Abbott, Ryan. The Reasonable Robot: Artificial Intelligence and the Law. Cambridge: Cambridge University Press, 2020.// https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=3611370&_cf_chl_f_tk=tb.O21MM9oZ1m8fWYwXOGkjQyACQdTQQ7c4MRjK68wQ-1783417660-1.0.1.1-YWxNJ.ODxSmAFELzo5muVuNGLbWUxAMECvPCZhFPHqE
18. Bryson, Joanna J. "Robots Should Be Slaves." In Close Engagements with Artificial Companions: Key Social, Psychological, Ethical and Design Issues, ed. Yorick Wilks, 63–74. Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 2010. DOI:10.1075/nlp.8.11bry// <https://researchportal.bath.ac.uk/en/publications/robots-should-be-slaves>

19. Calo, Ryan. "The Interesting Robot: A Reply to Professor Abbott." *Jerusalem Review of Legal Studies* 25, no. 1 (2022): 1–15. Oxford University Press. https://www.researchgate.net/publication/363114569_The_Interesting_Robot_A_Reply_to_Professor_Abbott
20. S.Bozarov. Sun'iy intellekt javobgarligining axloqiy va huquqiy taomillari // Общество и инновации. 2022. Т. 3. № 3. С. 48–56. https://www.researchgate.net/publication/362153091_Sun'iy_intellekt_javobgarligining_axloqiy_va_huquqiy_taomillari
21. Bozarov S.S. Artificial Intelligence – Whether Responsibility of Robots Possible? // *Yurisprudensiya*. – 2021. – №5. – B. 60–64. https://www.researchgate.net/publication/368737614_Artificial_intelligence_-_Whether_responsibility_of_robots_possible
22. A.V.Ubaydullayeva. Sun'iy intellekt yordamida yaratilgan intellektual mulkning huquqiy tartibga solinishi. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati. TDYU. Toshkent-2025 <https://justy.uz/books/suniy-intellekt-yordamida-yaratilgan-intellektual-mulkning-huquqiy-tartibga-solinishi/>
23. Rustambekov I., Gulyamov S., Ubaydullaeva A., Intellectual Property in the Digital Age: Educational methodical manual. Tashkent state University of law. Tashkent-2025 <https://library.tsul.uz/uz/books/18507>

ALLAMBERGENOVA Farida Bazarbay qizi

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi
Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish
institutining tayanch doktoranti
E-mail: faridaallambergenova98@gmail.com

ELEKTRON SHARTNOMA TUSHUNCHASI VA UNING FUQAROLIK-HUQUQIY TABIATI: ELEKTRON SHAKLNING MODDIY VA PROTSESSUAL JIHALTLARI HAMDA XALQARO DOKTRINALAR TAHLILI

Iqtibos keltirish uchun (для цитирования, for citation): ALLAMBERGENOVA F.B. Elektron shartnoma tushunchasi va uning fuqarolik-huquqiy tabiati: elektron shaklning moddiy va protsessual jihatlari hamda xalqaro doktrinalar tahlili // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 4 (2026) B. 93-100.



4 (2026) DOI <https://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/4-010>

ANNOTATSIYA

Maqolada elektron shartnoma tushunchasi va uning fuqarolik-huquqiy tabiati elektron shaklning moddiy-huquqiy hamda protsessual jihatlari bilan uzviy bog'liqlikda tahlil qilinadi. Maqolaning maqsadi elektron shartnomani mustaqil shartnoma turi sifatida emas, balki fuqarolik-huquqiy shartnomaning raqamli shaklda ifodalanishi sifatida asoslash, elektron rozilik, elektron hujjat, elektron imzo, oferta va aksept, shuningdek, elektron dalillar institutlari bilan bog'liq nazariy va amaliy muammolarni aniqlashdan iborat. Maqolada O'zbekiston qonunchiligi, UNCITRAL model qonunlari, BMTning elektron kommunikatsiyalar to'g'risidagi konvensiyasi, Yevropa Ittifoqining eIDAS reglamenti, AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya va Fransiya tajribasi qiyosiy-huquqiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida elektron shartnomaning mazmuni an'anaviy shartnoma institutidan ajralmasligi, biroq uning shakli, taraflarni identifikatsiya qilish mexanizmi, rozilikni tasdiqlash usuli va sudda isbotlanish tartibi raqamli muhit xususiyatlari bilan belgilanishi asoslandi. Shuningdek, elektron shartnomalarda platforma operatorining roli, smart-kontraktlardan farqli jihatlari, elektron oferta va elektron akseptni aniqlash mezonlari hamda elektron dalillarni baholash talablari ochib berildi. Maqolaning ilmiy yangiligi elektron shartnomani fuqarolik-huquqiy kelishuv, elektron hujjat, raqamli identifikatsiya vositasi va protsessual dalil sifatida kompleks tahlil qilishda namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: elektron shartnoma, elektron hujjat, elektron imzo, elektron tijorat, elektron oferta, elektron aksept, smart-kontrakt, platforma operatori, raqamli dalil, funksional ekvivalentlik.

АЛЛАМБЕРГЕНОВА Фарида

Докторант Института повышения квалификации
и переподготовки юридических кадров при
Министерстве юстиции Республики Узбекистан
E-mail: faridaallambergenova98@gmail.com

ПОНЯТИЕ ЭЛЕКТРОННОГО ДОГОВОРА И ЕГО ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВАЯ ПРИРОДА: МАТЕРИАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ И ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ЭЛЕКТРОННОЙ ФОРМЫ, А ТАКЖЕ АНАЛИЗ МЕЖДУНАРОДНЫХ ДОКТРИН

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется понятие электронного договора и его гражданско-правовая природа во взаимосвязи с материально-правовыми и процессуальными аспектами электронной формы. Цель исследования состоит в обосновании электронного договора не как самостоятельного вида договора, а как цифровой формы выражения гражданско-правового договора, а также в выявлении теоретических и практических проблем, связанных с электронным волеизъявлением, электронным документом, электронной подписью, офертой и акцептом, а также электронными доказательствами. В статье проводится сравнительно-правовой анализ законодательства Республики Узбекистан, типовых законов UNCITRAL, Конвенции ООН об использовании электронных сообщений в международных договорах, Регламента ЕС eIDAS, а также опыта США, Великобритании, Германии и Франции. В результате исследования обосновано, что по своему содержанию электронный договор не отделяется от традиционного договорного института, однако его форма, механизм идентификации сторон, способ подтверждения согласия и порядок доказывания в суде определяются особенностями цифровой среды. Кроме того, раскрываются роль оператора электронной платформы, отличие электронного договора от смарт-контракта, критерии определения электронной оферты и электронного акцепта, а также требования к оценке электронных доказательств. Научная новизна статьи выражается в комплексном исследовании электронного договора как гражданско-правового соглашения, электронного документа, средства цифровой идентификации и процессуального доказательства.

Ключевые слова: электронный договор, электронный документ, электронная подпись, электронная коммерция, электронная оферта, электронный акцепт, смарт-контракт, оператор платформы, цифровое доказательство, функциональная эквивалентность.

FARIDA Allambergenova

PhD candidate at the Training Institute for lawyers
under the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan
E-mail: faridaallambergenova98@gmail.com

THE CONCEPT OF AN ELECTRONIC CONTRACT AND ITS CIVIL-LAW NATURE: SUBSTANTIVE AND PROCEDURAL ASPECTS OF ELECTRONIC FORM AND ANALYSIS OF INTERNATIONAL DOCTRINES

ANNOTATION

The article analyzes the concept of an electronic contract and its civil-law nature in close connection with the substantive and procedural aspects of electronic form. The purpose of the research is to substantiate that an electronic contract should not be regarded as an independent type of contract, but

rather as a digital form of expression of a civil-law contract, and to identify theoretical and practical issues related to electronic consent, electronic documents, electronic signatures, offer and acceptance, as well as electronic evidence. The article provides a comparative legal analysis of the legislation of Uzbekistan, the UNCITRAL model laws, the United Nations Convention on the Use of Electronic Communications in International Contracts, the EU eIDAS Regulation, and the legal experience of the United States, the United Kingdom, Germany and France. The study concludes that, in terms of its legal content, an electronic contract is not separate from the traditional contract institution; however, the specific features of the digital environment determine its form, the mechanism for identifying the parties, the method of confirming consent and the procedure for proving it in court. The article also examines the role of platform operators, the distinction between electronic contracts and smart contracts, the criteria for determining electronic offer and acceptance, and the requirements for assessing electronic evidence. The scientific novelty lies in the comprehensive analysis of an electronic contract as a civil-law agreement, an electronic document, a means of digital identification and procedural evidence.

Keywords: electronic contract, electronic document, electronic signature, e-commerce, electronic offer, electronic acceptance, smart contract, platform operator, digital evidence, functional equivalence.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida fuqarolik-huquqiy munosabatlarning katta qismi elektron muhitga ko'chib, shartnomalar qog'oz hujjat va qo'lyozma imzo orqali emas, balki elektron platformalar, mobil ilovalar, elektron imzo, SMS-kod, "roziman" yoki "tasdiqlash" kabi raqamli harakatlar orqali tuzilmoqda. O'zbekiston qonunchiligida elektron tijorat, elektron hujjat aylanishi va elektron raqamli imzoga oid maxsus normalar mavjud bo'lsa-da, elektron shartnomaning fuqarolik-huquqiy tabiati, elektron rozilik mezonlari va sudda dalil sifatida baholanishi yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Ayniqsa, foydalanuvchining roziligi elektron muhitda turli shakllarda ifodalanishi mumkin: "click-wrap" – foydalanuvchi shartlarga roziligini alohida tugma yoki belgi orqali bildiradigan model; "browse-wrap" – shartlar sayt havolasi orqali joylashtirilib, saytdan foydalanish rozilik sifatida talqin qilinadigan model; "sign-in-wrap" esa ro'yxatdan o'tish yoki tizimga kirish harakati shartlarga rozilik bilan bog'lanadigan model sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, "marketpleys" orqali tuziladigan bitimlarda platforma operatorining huquqiy maqomi, taraflar roziligini qayd etish va shartnoma shartlarini saqlash majburiyati alohida ilmiy-amaliy tahlilni talab qiladi.

Mazkur maqolaning ilmiy yangiligi elektron shartnomani alohida shartnoma turi sifatida emas, balki fuqarolik-huquqiy kelishuvning raqamli muhitda shakllanishi sifatida tahlil qilishda namoyon bo'ladi. Shu sababli maqolada asosiy e'tibor "elektronlik" belgisining o'ziga emas, balki taraflar roziligini aniqlash, shartnoma matnini saqlash, shaxsni identifikatsiya qilish va elektron dalillarni baholash mezonlariga qaratiladi.

Elektron shartnoma tushunchasini aniqlashda uni elektron hujjat, elektron xabar, elektron bitim va elektron raqamli imzodan farqlash zarur. Elektron hujjat shartnoma shartlari ifodalangan axborot shakli, elektron xabar taraflar o'rtasidagi axborot almashinuvi, elektron raqamli imzo esa shaxsni identifikatsiya qilish va rozilikni tasdiqlash vositasidir. Elektron shartnoma esa mazkur elementlar orqali fuqarolik-huquqiy majburiyatni vujudga keltiruvchi kelishuv sifatida namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonunida elektron tijoratda shartnoma taraflar o'rtasida shartnoma shartlarini elektron hujjatlar va/yoki elektron xabarlarni tasdiqlash yo'li bilan kelishish orqali elektron hujjat shaklida rasmiylashtirilishi belgilangan [1, 15-modd]. Mazkur qoida elektron shartnomaning asosiy belgilarini ko'rsatadi: shartnoma axborot tizimlari orqali tuziladi, taraflarning roziligi elektron hujjat yoki elektron xabar orqali ifodalanadi va bunday shartnoma fuqarolik-huquqiy shartnoma sifatida umumiy shartnoma qoidalariga bo'ysunadi. Mazkur qoida elektron shartnomada huquqiy baholash markazi shartnomaning nomi yoki texnik vositasida emas, balki taraflar roziligining qanday shakllangani, qaysi matnga nisbatan bildirilgani va keyinchalik qanday dalillar bilan tasdiqlanishida ekanini ko'rsatadi. Bu masalada xorijiy doktrinada ham o'xshash, biroq ayrim jihatlar bilan farqli yondashuvlar mavjud. Masalan, Eliza Mik elektron shartnomalar bo'yicha adabiyotlarda "elektronlik" ortiqcha bo'rttirilishini

tanqid qilib, an'anaviy shartnoma huquqi to'liq chetga surilmasligi, balki texnologik omillar bilan to'ldirilishi kerakligini ta'kidlaydi [2, B.324].

Elektron shartnomani baholashda uning raqamli elementlari alohida huquqiy vazifani bajaradi: elektron hujjat shartnoma matnini aks ettiradi, elektron xabar taraflar o'rtasidagi axborot almashinuvini tasdiqlaydi, elektron imzo yoki SMS-kod esa shaxsni identifikatsiya qilish va rozilikni ifodalash vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli elektron shartnoma bo'yicha nizoda ushbu elementlar alohida-alohida emas, balki yagona daliliy majmua sifatida baholanishi lozim.

Elektron shartnomani an'anaviy shartnomadan farqlovchi asosiy jihat uning nomida emas, balki huquqiy faktning raqamli izlar orqali shakllanishidadir. Qog'oz shartnomada erk-iroda odatda bitta hujjat va imzo orqali aniqlansa, elektron shartnomada u platformaga kirish, shartlar bilan tanishish, "roziman" tugmasini bosish, SMS-kod kiritish yoki to'lovni amalga oshirish kabi harakatlar majmui orqali isbotlanadi. Shu sababli elektron shartnomalarda elektron tasdiqlash usulining o'zi emas, balki uning huquqiy funksiyasi – rozilik va identifikatsiyani tasdiqlashi – muhim ahamiyatga ega [1, 15-modd].

Elektron shartnomaning mazkur belgilari uni boshqa raqamli-huquqiy hodisalardan, xususan, smart-kontraktlardan farqlash zaruratini yuzaga keltiradi. Amaliyotda elektron shaklda tuzilgan shartnoma va shartlarni avtomatik bajarishga qaratilgan dasturiy kod ko'pincha bir xil tushuncha sifatida talqin qilinsada, fuqarolik-huquqiy tahlilda ularning vazifasi va huquqiy tabiati bir xil emas. Elektron shartnoma har qanday fuqarolik-huquqiy kelishuvning elektron vositalar orqali tuzilishini anglatadi, smart-kontrakt esa odatda blokcheyn yoki boshqa dasturiy muhitda shartnoma shartlarining avtomatik bajarilishiga qaratilgan kodlashtirilgan mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. F. Ghodoosi smart-kontraktlar bo'yicha tahlilida "smart-kontrakt" atamasi ko'pincha o'z-o'zidan bajariladigan dasturiy kodga nisbatan ishlatilishini ko'rsatadi [3, B.51]. Eliza Mik esa smart-kontraktlar bo'yicha huquqiy tahlilda texnologiyaga haddan tashqari idealistik yondashmaslik, ularning huquqiy muammolarini "ishonch" yoki "o'zgarmaslik" kabi texnik tushunchalar bilan avtomatik hal qilib bo'lmazligini ta'kidlaydi [4, B.269]. Fikrimizcha, elektron shartnoma huquqiy kelishuv bo'lsa, smart-kontrakt ko'pincha shu kelishuvni avtomatlashtirish yoki ijro etish vositasidir. Shu sababli smart-kontraktni elektron shartnomaning sinonimi emas, balki ayrim hollarda uning texnologik ijro mexanizmi sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Mazkur farq milliy qonunchilik nuqtayi nazaridan ham ahamiyatlidir. O'zbekiston Respublikasida kripto-aktivlar aylanmasi, ma'lumotlarning taqsimlangan reyestri va kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari faoliyati O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi tomonidan tartibga solinadi. Agentlik ma'lumotlarida kripto-aktiv ma'lumotlarning taqsimlangan reyestridagi raqamli yozuvlar yig'indisi bo'lgan, qiymati va egasiga ega mulkiy huquq sifatida, ma'lumotlarning taqsimlangan reyestri esa ma'lumotlarni ixtisoslashtirilgan bloklarda taqsimlovchi texnologiya sifatida izohlanadi [5]. Shu jihatdan smart-kontrakt blokcheyn yoki boshqa taqsimlangan reyestr muhitida avtomatik ijro mexanizmi sifatida namoyon bo'lishi mumkin, biroq bu holat uni o'z-o'zidan Fuqarolik kodeksi doirasidagi alohida shartnoma turi sifatida tan olishni anglatmaydi. Fuqarolik-huquqiy baholashda hal qiluvchi mezon kodning mavjudligi emas, balki taraflarning roziligi, shartnoma shartlarining aniqligi va ushbu kod qaysi huquqiy kelishuvni bajarishga xizmat qilayotganidir.

Smart-kontraktlar va boshqa raqamli mexanizmlar elektron shartnomalarda axborot tizimi yoki platforma operatorining rolini ham aniqlash zarurligini ko'rsatadi. "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonunda elektron tijorat operatori elektron hujjatlar va elektron xabarlar aylanishi bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxs sifatida belgilanadi [1, 3, 11-13-moddalar]. Shu bois platforma faqat texnik vositachi bo'ladimi yoki shartnomaviy munosabatda faol ishtirok etadimi, uning real funksiyalari – to'lovni qabul qilishi, buyurtmani tasdiqlashi, shartlarni belgilashi va nizoda zarur ma'lumotlarni saqlashi asosida baholanishi lozim.

Demak, elektron shartnoma tushunchasini aniqlashda uchta element – taraflarning fuqarolik-huquqiy kelishuvi, ushbu kelishuvni elektron shaklda ifodalovchi vositalar hamda shartnoma tuzilishi va isbotlanishida ishtirok etuvchi platforma yoki axborot tizimining funksional roli – birgalikda hisobga olinishi lozim. Shu asosda elektron shartnomaga quyidagicha ta'rif berish mumkin: elektron

shartnoma – bu fuqarolik huquq va majburiyatlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan, taraflarning erk-irodasi elektron hujjat, elektron xabar, elektron imzo yoxud boshqa raqamli identifikatsiya va tasdiqlash vositalari orqali ifodalangan fuqarolik-huquqiy kelishuvdir.

Elektron shartnomaning fuqarolik-huquqiy tabiati uning qaysi huquqiy institutga mansubligi va qanday majburiyat munosabatini vujudga keltirishini aniqlash bilan bog'liq. Elektron shaklda oldi-sotdi, xizmat ko'rsatish, pudrat, litsenziya, bank, sug'urta yoki iste'mol shartnomalari tuzilishi mumkin; bunday hollarda baholash shartnomaning elektron shakliga emas, balki taraflar roziligi, shartnoma shartlarining aniqligi, identifikatsiya usuli va elektron dalillarning ishonchliligiga qaratiladi. Fuqarolik kodeksida shartnoma ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquq va burchlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi sifatida belgilanadi [6, 353-modda]. I.B.Zokirov bitimni erk-iroda harakati, H.R. Rahmonqulov esa shartnomani majburiyatlarni yuzaga keltiruvchi yuridik fakt sifatida baholaydi [7; 8]. Shu bois elektron shartnoma ham elektron shaklda ifodalangan erk-iroda harakati va majburiyatni vujudga keltiruvchi yuridik fakt sifatida namoyon bo'ladi.

Elektron shartnomaning yuridik fakt sifatidagi mohiyatini tan olish uning tuzilish mexanizmini aniqlashni talab qiladi. Shartnomaviy majburiyat faqat elektron shakl mavjudligi bilan emas, balki taraflarning o'zaro mos erk-irodasi shakllanganligi bilan vujudga keladi. Elektron muhitda bunday rozilik "I agree", "roziman", "buyurtma berish", "to'lov qilish", SMS-kod kiritish yoki elektron imzo qo'yish kabi harakatlar orqali namoyon bo'ladi. Mark Lemley internetdagi "terms of use" amaliyotida foydalanuvchi ko'pincha real muzokara qilmasdan, oldindan ishlab chiqilgan shartlarga qo'shilishini ko'rsatadi [9]. Shu sababli elektron shartnomada rozilikni baholashda faqat texnik tugma bosilganligi emas, balki shartlar foydalanuvchiga aniq, tushunarli va oldindan tanishish imkoniyati bilan taqdim etilganligi ham asosiy mezon bo'lishi lozim.

Elektron oferta va elektron aksept masalasida ham Fuqarolik kodeksining umumiy qoidalari asos bo'lib xizmat qiladi. Kodeksda oferta, aksept, shartnomaning tuzilgan payti va shartnoma shakliga oid normalar belgilangan [6, 364-376-moddalar]. Elektron muhitda oferta sayt, mobil ilova, marketpleys sahifasi, elektron pochta yoki boshqa axborot tizimi orqali bildirilishi mumkin; aksept esa buyurtma berish, to'lovni amalga oshirish, elektron tasdiqlash yoki boshqa konkludent harakat orqali ifodalanadi. Biroq har qanday reklama yoki mahsulot sahifasini oferta deb baholash mumkin emas; unda shartnomaning muhim shartlari yetarli darajada aniqlangan bo'lishi hamda uni qabul qilgan shaxs bilan shartnoma tuzish niyati mavjudligi ko'rinib turishi lozim.

"Click-wrap", "browse-wrap" va "sign-in-wrap" shartnomalar elektron shartnomada rozilikni aniqlash muammosini yaqqol ko'rsatadi. "Click-wrap" modelida foydalanuvchi shartlarga roziligini alohida tugma yoki belgi orqali bildiradi; "browse-wrap" modelida esa shartlar odatda saytning havolasi orqali joylashtiriladi va foydalanuvchining saytdan foydalanishi rozilik sifatida talqin qilinadi; "sign-in-wrap" modelida esa ro'yxatdan o'tish yoki tizimga kirish harakati shartlarga rozilik bilan bog'lanadi. AQSH sud amaliyotida Specht v Netscape ishida foydalanuvchiga shartlar yetarli darajada ko'rinmagan bo'lsa, oddiy yuklab olish harakati rozilikni anglatmasligi ta'kidlangan [10]. Nguyen v Barnes & Noble ishida esa "terms of use" havolasining mavjudligi, foydalanuvchida real yoki konstruktiv xabardorlik bo'lmasa, shartnomaviy majburiyatni yuzaga keltirish uchun yetarli emasligi ko'rsatilgan [11]. Shunday qilib, xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, elektron shartnomaning haqiqiyliigi faqat texnik harakatga emas, balki shartlar haqida yetarli xabardorlik va aniq rozilik mavjudligiga bog'liq.

O'zbekiston amaliyotida ham bunday holatlar, ayniqsa, elektron tijorat va muddatli to'lov munosabatlarida uchrashi mumkin. Masalan, foydalanuvchi marketpleys orqali tovarni muddatli to'lov asosida xarid qilib, shartlarni SMS-kod orqali tasdiqlagan bo'lsa, keyingi nizoda faqat SMS-kod mavjudligi yetarli dalil bo'lib qolmaydi. Bunda shartnoma matnining qaysi tahriri foydalanuvchiga ko'rsatilgani, SMS-kod qaysi raqamga yuborilgani, tasdiqlash vaqti, akkauntga kirish tarixi, IP-manzil, to'lov cheki va platforma loglari aloqadorlik, maqbullik va ishonchlilik mezonlari asosida birgalikda baholanishi lozim [15].

Elektron muhitda rozilikni aniqlash shartnoma haqiqiylikning muhim jihati bo'lsa-da, shartnomaviy munosabatning huquqiy kuchi yozma shaklga tenglik, shartnoma matnini saqlash va uni keyinchalik dalil sifatida taqdim etish imkoniyati bilan ham bog'liq. Agar platforma foydalanuvchi qaysi tahrirdagi shartlarga rozilik bildirganini saqlamagan bo'lsa, nizoda shartnoma mazmunini aniqlash qiyinlashadi.

Elektron shartnomalarda elektron shaklning moddiy-huquqiy ahamiyati uning yozma shakl talabini bajarish qobiliyati bilan belgilanadi. "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi Qonunda elektron hujjat qog'oz hujjatga tenglashtirilishi va u bilan bir xil yuridik kuchga ega ekanligi belgilangan [12, 7-moddal]. UNCITRALning Elektron tijorat to'g'risidagi namunaviy qonuni ham elektron xabar faqat elektron shaklda bo'lgani sababli yuridik kuchdan mahrum etilmasligini belgilab, "yozma shakl", "imzo" va "asl nusxa" talablarini funksional ekvivalentlik asosida talqin qiladi [13, 5-8-moddalar]. Shu bilan birga, elektron hujjat mavjudligining o'zi yetarli emas; unda taraflarning haqiqiy roziligi, shartlar bilan oldindan tanishish imkoniyati va hujjat yaxlitligi aniqlanishi kerak [12, 5-7-moddalar]. Elektron raqamli imzo shaxsni identifikatsiya qilish va rozilikni tasdiqlash vositasi bo'lsa-da [14, 3-4-moddalar], zamonaviy elektron shartnomalarda SMS-kod, bir martalik parol, Face-ID, mobil ilovadagi tasdiqlash yoki "roziman" tugmasi ham identifikatsiya, autentifikatsiya va rozilikni isbotlash funksiyasini bajarishi mumkin.

Elektron shartnomada shartnoma matnini saqlash va foydalanuvchiga qayta ko'rsatish imkoniyati muhimdir. Shu sababli platforma yoki elektron tijorat operatori shartnoma matni, rozilik bildirilgan vaqt, identifikatsiya vositasi hamda foydalanuvchiga taqdim etilgan axborotni saqlashi lozim. Ayniqsa, iste'molchi ishtirokidagi munosabatlarda shartnoma predmeti, narx, to'lov, yetkazib berish, qaytarish va shikoyat qilish tartibi tushunarli, ko'rinadigan va saqlab olish mumkin bo'lgan shaklda taqdim etilishi kerak [9, B.459].

Elektron shartnomaning protsessual ahamiyati uning nizoli holatda dalil sifatida baholanishi bilan belgilanadi. Moddiy-huquqiy jihatdan elektron shaklda tuzilgan shartnoma haqiqiy bo'lishi mumkin, biroq sudda uning qachon, kim tomonidan, qanday shartlarda va qaysi raqamli mexanizm orqali tuzilganini isbotlash alohida protsessual masaladir. Fikrimizcha, elektron shartnomalar bo'yicha nizolarda asosiy e'tibor elektron rozilikning autentikligi, shartnoma matnining o'zgarmaganligi va raqamli izlarning ishonchliligini aniqlashga qaratilishi lozim. Fuqarolik protsessual kodeksida fuqarolik ishi elektron shaklda shakllantirilishi mumkinligi belgilangan [15, 5-moddal]. Dalillar esa sud tomonidan aloqadorlik, maqbullik va ishonchlilik nuqtayi nazaridan baholanadi [15, 80-moddal]. Shuningdek, ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan elektron ma'lumotlar, jumladan elektron fayllar, audio- va videoyozuvlar, internet tarmog'ida saqlanayotgan ma'lumotlar raqamli dalil sifatida e'tirof etilgan [15, 89²-moddal]. Bu normalar elektron shartnoma, elektron yozishma, SMS-kod, elektron pochta, elektron imzo, IP-manzil, log-fayl, to'lov cheki yoki marketpleys buyurtma tarixini dalil sifatida baholash imkonini beradi. Biroq raqamli dalilning mavjudligi uning avtomatik ishonchli ekanini anglatmaydi; sud ushbu ma'lumotning kelib chiqishi, saqlanish tartibi, yaxlitligi va o'zgartirilmaganligini tekshirishi zarur.

Elektron dalillarni baholashda autentiklik, yaxlitlik va ishonchlilik asosiy mezon bo'lib, bunda faqat ko'rinib turgan matn emas, balki metama'lumotlar, server loglari va saqlanish zanjiri ham inobatga olinishi lozim [16].

Elektron oferta va akseptni isbotlashda "roziman" tugmasi bosilgan vaqt, foydalanuvchi akkaunti, IP-manzil, SMS-kod tasdig'i, to'lov amalga oshirilganligi, platforma tomonidan yuborilgan elektron xabarlar va shartnoma matnining qaysi tahriri qabul qilingani birgalikda baholanishi kerak. Elektron shartnoma tuzilgan vaqt va joy server vaqti, elektron xabar yuborilgan va qabul qilingan vaqt, to'lov tasdiqlangan sana hamda platforma loglari orqali aniqlanishi mumkin [17, 10-moddal]. Shu bois platforma operatorlari shartnoma tuzilishiga oid raqamli izlarni ma'lum muddat saqlashi, ularning yaxlitligini ta'minlashi va sud talabiga ko'ra taqdim etishi lozim [15, 89³-89⁴-moddalar].

Elektron shartnomalar bo'yicha nizolarda isbotlash yuki dalillarga real egalik qilish imkoniyati asosida taqsimlanishi kerak. Server loglari, shartnoma tahriri, foydalanuvchi harakatlari tarixi, tasdiqlash vaqti, IP-manzil va to'lov ma'lumotlari odatda professional subyekt yoki platforma operatori nazoratida bo'ladi. Shu sababli professional subyekt shartlar foydalanuvchiga oldindan taqdim etilganini, foydalanuvchi

ularga ongli ravishda rozilik bildirganini va shartnoma matni o'zgarmaganligini isbotlashi, iste'molchi esa o'z talabining mazmuni, zarar yoki huquqbuzarlik holatini asoslab berishi lozim.

Xalqaro va xorijiy tajriba elektron shartnomalarni tartibga solishda texnologik vositaning nomidan ko'ra uning huquqiy vazifasiga – shartnoma matnini saqlash, tarafni aniqlash va rozilikni tasdiqlash imkoniyatiga e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi.

UNCITRALning Elektron tijorat to'g'risidagi namunaviy qonuni elektron xabar faqat elektron shaklda bo'lgani sababli huquqiy kuchdan mahrum etilmasligini belgilaydi va elektron shaklni "yozma shakl", "imzo" hamda "asl nusxa" talablariga nisbatan funksional talqin qiladi [13, 5-8-moddalar]. UNCITRALning Elektron imzolar to'g'risidagi namunaviy qonuni elektron imzo imzolovchini aniqlash va uning elektron xabardagi axborotga nisbatan roziligini ko'rsatish funksiyasini bajarsa, huquqiy jihatdan tan olinishi mumkinligini nazarda tutadi [18, 6-7-moddalar]. eIDAS reglamenti esa elektron identifikatsiya va ishonchli xizmatlar infratuzilmasiga tayangan holda oddiy, ilg'or va malakali elektron imzolarni farqlaydi hamda elektron imzoning dalil sifatida rad etilmasligini belgilaydi [19, 3, 25-moddalar].

O'zbekiston uchun ushbu ikki modelni qarama-qarshi qo'yish emas, balki uyg'unlashtirish maqsadga muvofiq. Fuqarolik kodeksida elektron shakldagi bitim va shartnomalarning umumiy huquqiy mezonlari, ya'ni rozilik, yozma shaklga tenglik, matnini saqlash va keyinchalik qayta ko'rsatish imkoniyati belgilanishi mumkin. Maxsus qonunlarda esa elektron identifikatsiya, ishonchli xizmatlar, sertifikatlash, platforma operatorlarining axborotni saqlash majburiyati va elektron dalillarni texnik tasdiqlash mexanizmlari batafsil tartibga solinishi lozim. Bunday ikki pog'onali model fuqarolik-huquqiy barqarorlik va texnologik moslashuvchanlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi.

AQSH tajribasida UETA va E-SIGN Act elektron yozuv yoki elektron imzo faqat elektron shaklda bo'lgani sababli huquqiy kuchdan mahrum etilmasligini belgilaydi [20, 7-bo'lim; 21, § 7001]. Buyuk Britaniya elektron imzoni asosan daliliy vosita sifatida tan olsa [22, 7-bo'lim], Germaniya yozma shaklni elektron shakl bilan almashtirishda malakali elektron imzoga tayanadi [23, 126a-modda], Fransiya esa elektron yozuvning daliliy kuchini shaxsni aniqlash va hujjat yaxlitligi bilan bog'laydi [24, 1366-1367-moddalar]. Ushbu yondashuvlar O'zbekiston uchun elektron shaklni tan olish bilan cheklanmasdan, identifikatsiya, rozilik, hujjat yaxlitligi va raqamli dalillarni baholash mezonlarini tizimlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Milliy qonunchilikda elektron shartnoma, elektron hujjat, elektron xabar va elektron tijorat bitimi tushunchalari o'rtasidagi chegaralarni, shuningdek, elektron imzo, SMS-kod, biometrik tasdiq va platformadagi "roziman" tugmasi kabi rozilik shakllarining huquqiy maqomini aniqlashtirish zarur. Shu maqsadda Fuqarolik kodeksida elektron shaklda tuziladigan bitim va shartnomalar uchun elektron rozilik, identifikatsiya, shartnoma matnini saqlash va keyinchalik qayta ko'rsatish mezonlarini belgilash; "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonunda elektron oferta, elektron aksept, platformaviy shartnoma va avtomatlashtirilgan bitim tushunchalarini aniqlashtirish; FPKda esa elektron shartnomalar bo'yicha raqamli dalillarni autentiklik, yaxlitlik, metama'lumotlar va saqlanish zanjiri asosida baholash mezonlarini mustahkamlash maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, SMS-kod, elektron imzo, IP-manzil, log-fayl va platforma yozuvlarini baholashga oid sud amaliyotini umumlashtirish elektron tijorat ishtirokchilari uchun yagona yondashuv shakllanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, elektron shartnomalarning huquqiy kuchi taraflar roziligi, shartnoma shartlarining aniqligi va elektron tasdiqlash vositalarining ishonchliligi bilan belgilanadi. Raqamli muhitda ushbu mezonlarni baholash shartnoma matnining qaysi tahriri qabul qilinganini, shaxs qanday identifikatsiya qilinganini, elektron hujjat o'zgartirilmaganligini va raqamli izlarning ishonchligini alohida tekshirishni talab qiladi. Shu sababli milliy qonunchilikda elektron rozilik, platforma operatorining axborotni saqlash majburiyati va raqamli dalillarni baholash mezonlarini aniq belgilash elektron shartnomaviy munosabatlarda taraflar huquqlarini samarali himoya qilishga xizmat qiladi.

IQTIBOSLAR/CHOCKI/REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi O'RQ-792-son Qonuni. 29.09.2022. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-6213382>.

2. Mik E. The Unimportance of Being “Electronic” or Popular Misconceptions about “Internet Contracting” // International Journal of Law and Information Technology. 2011. Vol. 19. Issue 4. P. 324-347. DOI: <https://doi.org/10.1093/ijlit/ear011>. URL: <https://academic.oup.com/ijlit/article-abstract/19/4/324/707792> (Murojaat qilingan sana: 01.06.2026).
3. Ghodoosi F. Contracting in the Age of Smart Contracts // Washington Law Review. 2021. Vol. 96. P. 51-92. URL: <https://digitalcommons.law.uw.edu/wlr/vol96/iss1/2/> (Murojaat qilingan sana: 01.06.2026).
4. Mik E. Smart contracts: terminology, technical limitations and real world complexity // Law, Innovation and Technology. 2017. Vol. 9. Issue 2. P. 269-300. DOI: <https://doi.org/10.1080/17579961.2017.1378468>. URL: https://ink.library.smu.edu.sg/sol_research/2341/ (Murojaat qilingan sana: 01.06.2026).
5. O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi. Kripto-aktivlar haqida nimalarni bilish kerak? URL: <https://napp.uz/oz/pages/faq>.
6. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. 21.12.1995. URL: <https://lex.uz/docs/-111189>.
7. Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. I qism. – Toshkent: TDYI, 2006. URL: <https://library-tsul.uz/fuqarolik-huquqi-1-qism-zokirov-i-2006/> (Murojaat qilingan sana: 01.06.2026).
8. Rahmonqulov H.R. Majburiyat huquqi. – Toshkent, 2005. URL: <https://library-tsul.uz/category/shartnoma-huquqi/> (Murojaat qilingan sana: 01.06.2026).
9. Lemley M.A. Terms of Use // Minnesota Law Review. 2006. Vol. 91. P. 459-483. URL: <https://scholarship.law.umn.edu/mlr/624/> (Murojaat qilingan sana: 01.06.2026).
10. Specht v. Netscape Communications Corp., 306 F.3d 17. 2d Cir. 2002. URL: <https://opencasebook.org/casebooks/3665-contracts/resources/3.10-the-problem-of-online-click-to-submit-contracting-specht-v-netscape-communications-corp-306-f-3d-17-2002/> (Murojaat qilingan sana: 01.06.2026).
11. Nguyen v. Barnes & Noble Inc., 763 F.3d 1171. 9th Cir. 2014. URL: <https://cdn.ca9.uscourts.gov/datastore/opinions/2014/08/18/12-56628.pdf> (Murojaat qilingan sana: 01.06.2026).
12. O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi 611-II-son Qonuni. 29.04.2004. URL: <https://lex.uz/docs/-165079>.
13. UNCITRAL Model Law on Electronic Commerce with Guide to Enactment. 1996. URL: https://uncitral.un.org/en/texts/ecommerce/modellaw/electronic_commerce (Murojaat qilingan sana: 01.06.2026).
14. O‘zbekiston Respublikasining “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”gi O‘RQ-793-son Qonuni. 12.10.2022. URL: <https://lex.uz/docs/-6234904>.
15. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. 22.01.2018. URL: <https://lex.uz/acts/-3517337>.
16. Mason S., Seng D. Electronic Evidence and Electronic Signatures. 5th ed. – London: University of London Press, 2021. URL: <https://humanities-digital-library.org/index.php/hdl/catalog/book/electronic-evidence-and-electronic-signatures> (Murojaat qilingan sana: 01.06.2026).
17. United Nations Convention on the Use of Electronic Communications in International Contracts. New York, 2005. URL: https://uncitral.un.org/en/texts/ecommerce/conventions/electronic_communications (Murojaat qilingan sana: 01.06.2026).
18. UNCITRAL Model Law on Electronic Signatures with Guide to Enactment. 2001. URL: https://uncitral.un.org/en/texts/ecommerce/modellaw/electronic_signatures (Murojaat qilingan sana: 01.06.2026).
19. Regulation (EU) No 910/2014 of the European Parliament and of the Council of 23 July 2014 on electronic identification and trust services for electronic transactions in the internal market. URL: <https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2014/910/oj> (Murojaat qilingan sana: 01.06.2026).
20. Uniform Electronic Transactions Act. 1999. URL: <https://www.uniformlaws.org/committees/community-home?CommunityKey=2c04b76c-2b7d-4399-977e-d5876ba7e034> (Murojaat qilingan sana: 01.06.2026).
21. Electronic Signatures in Global and National Commerce Act, 15 U.S.C. § 7001. URL: <https://www.law.cornell.edu/uscode/text/15/7001> (Murojaat qilingan sana: 01.06.2026).
22. Electronic Communications Act 2000. URL: <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2000/7/section/7> (Murojaat qilingan sana: 01.06.2026).
23. German Civil Code (BGB). Section 126a. URL: https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_bgb/englisch_bgb.html (Murojaat qilingan sana: 01.06.2026).
24. French Civil Code. Arts. 1366-1367. URL: https://www.legifrance.gouv.fr/codes/article_lc/LEGIARTI000032042461; https://www.legifrance.gouv.fr/codes/article_lc/LEGIARTI000032042456 (Murojaat qilingan sana: 01.06.2026).

SALAYEV Nodirbek Saparbayevich

O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi
 ilmiy, innovatsiyalar va axborot-tahliliy
 ishlar bo'yicha prorektori
 ORCID: 0000-0002-2147-8762
 E-mail: n.salayev@sudacademy.uz

INSONSIZ JINOYAT: SUN'IY INTELLEKT, ALGORITM VA AYB TUSHUNCHASINING JINOYAT HUQUQIDAGI YANGI CHEGARALARI

Iqtibos keltirish uchun (для цитирования, for citation): SALAYEV N.S. Insonsiz jinoyat: sun'iy intellekt, algoritmi va ayb tushunchasining jinoyat huquqidagi yangi chegaralari // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 4 (2026) B. 101-108.

 4 (2026) DOI <https://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/4-011>

ANNOTATSIYA

Maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida jinoyat huquqi nazariyasi va amaliyotida yuzaga kelayotgan yangi muammolar ko'rib chiqilgan. Sun'iy intellekt tizimlarini jinoyat huquqining mustaqil subyekt sifatida tan olish imkoniyatlari tahlil qilingan. Aniqlanishicha, amaldagi jinoyat-huquqiy doktrina jinoyat subyektining ongi, iroda erkinligi, aybi hamda o'z qilmishining ijtimoiy va huquqiy oqibatlarini anglash qobiliyatiga asoslanadi. Sun'iy intellekt tizimlarida mazkur xususiyatlarning mavjud emasligi aniqlangan. Sun'iy intellekt ishtirokida sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishlarda ayb, sababiy bog'liqlik va javobgarlikni belgilash bilan bog'liq muammolar tavsiflangan. Xalqaro-huquqiy hujjatlar, xorijiy ilmiy doktrina hamda qiyosiy-huquqiy yondashuvlar ko'rib chiqilgan. Sun'iy intellektga "elektron shaxs" maqomini berish, uni bevosita jinoiy javobgarlikka tortish va funksional jihatdan inson ongiga tenglashtirish konsepsiyalari tanqidiy baholangan. Ma'lum bo'ldiki, hozirgi texnologik rivojlanish bosqichida sun'iy intellektni mustaqil jinoyat subyekt sifatida e'tirof etish yetarli darajada asoslanmagan. Ishlab chiqaruvchi, dasturchi, integrator, mulkdor, operator va foydalanuvchi o'rtasida javobgarlikni taqsimlash mezonlari aniqlangan. Algoritmik audit, texnik ekspertiza, raqamli dalillar va texnologik xavflarni baholash institutlarini rivojlantirish zarurati asoslangan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, jinoyat subyekt, ayb, algoritmi, javobgarlik, elektron shaxs, jinoyat, javobgarlik.

САЛАЕВ Нодирбек Сапарбаевич

Проректор по научной, инновационной
и информационно-аналитической работе
Академии правосудия Республики Узбекистан
ORCID: 0000-0002-2147-8762
E-mail: n.salayev@sudacademy.uz

ПРЕСТУПЛЕНИЕ БЕЗ ЧЕЛОВЕКА: ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ, АЛГОРИТМ И НОВЫЕ ГРАНИЦЫ ПОНЯТИЯ ВИНЫ В УГОЛОВНОМ ПРАВЕ

АННОТАЦИЯ

В статье рассмотрены новые теоретические и практические проблемы уголовного права, возникающие в условиях стремительного развития технологий искусственного интеллекта. Проанализирована возможность признания систем искусственного интеллекта самостоятельным

субъектом преступления. Установлено, что современная уголовно-правовая доктрина основывается на наличии у субъекта сознания, свободы воли, вины и способности осознавать социальные и правовые последствия совершённого деяния. Выяснено, что современные системы искусственного интеллекта указанными признаками не обладают. Охарактеризованы проблемы определения вины, причинной связи и уголовной ответственности за общественно опасные деяния, совершённые с применением автономных алгоритмических систем. Рассмотрены международно-правовые акты, зарубежная научная доктрина и сравнительно-правовые подходы к регулированию искусственного интеллекта. Критически оценены концепции наделяния искусственного интеллекта статусом «электронного лица», его непосредственного привлечения к уголовной ответственности и функционального приравнивания алгоритмических процессов к человеческому сознанию. Установлено, что на современном этапе технологического развития признание искусственного интеллекта самостоятельным субъектом преступления не имеет достаточного теоретического и практического обоснования. Определены критерии распределения ответственности между производителем, разработчиком, интегратором, собственником, оператором и пользователем системы. Обоснована необходимость развития алгоритмического аудита, технической экспертизы, цифровых доказательств и механизмов предварительной оценки технологических рисков.

Ключевые слова: искусственный интеллект, субъект преступления, вина, алгоритм, ответственность, электронное лицо, преступление, уголовная ответственность.

NODIRBEK Salaev

Vice-Rector for scientific, innovation
and information-analytical affairs
Academy of Justice of the Republic of Uzbekistan
ORCID: 0000-0002-2147-8762
E-mail: n.salayev@sudacademy.uz

CRIME WITHOUT A HUMAN: ARTIFICIAL INTELLIGENCE, ALGORITHM AND THE NEW BOUNDARIES OF THE CONCEPT OF GUILT IN CRIMINAL LAW

ANNOTATION

The article examines emerging theoretical and practical challenges in criminal law caused by the rapid development of artificial intelligence technologies. The possibility of recognizing artificial intelligence systems as autonomous subjects of crime is analyzed. It is established that contemporary criminal law doctrine is based on the offender's consciousness, free will, guilt and ability to understand the social and legal consequences of their conduct. It is determined that current artificial intelligence systems do not possess these characteristics. The problems of establishing guilt, causation and criminal liability for socially dangerous acts committed through autonomous algorithmic systems are described. International legal instruments, foreign legal scholarship and comparative legal approaches to the regulation of artificial intelligence are considered. The concepts of granting artificial intelligence the status of an "electronic person", imposing direct criminal liability on AI systems and treating algorithmic processes as functionally equivalent to human consciousness are critically assessed. It is established that, at the current stage of technological development, recognizing artificial intelligence as an independent subject of crime lacks sufficient theoretical and practical justification. Criteria for allocating responsibility among manufacturers, developers, integrators, owners, operators and users are identified. The need to develop algorithmic auditing, technical expertise, digital evidence procedures and mechanisms for the preliminary assessment of technological risks is substantiated.

Keywords: artificial intelligence, subject of crime, guilt, algorithm, liability, electronic person, crime, criminal liability.

“Agar bir kun texnologik qirilma o‘zi qasd qilib insonni o‘ldirsa - jazoga kim sazovor bo‘ladi: qurilmami, uni yaratgan muhandismi, yoki uni sotib olgan korxonami?”. Mana shu oddiy, lekin yechimi yo‘q savolning ortida butun bir yangi huquqiy paradigma – “insonsiz jinoyat” muammosi yashiringan.

Sun‘iy intellekt (SI) texnologiyalarining tibbiyot, transport, moliya, harbiy soha va davlat boshqaruvida keng qo‘llanilishi natijasida inson ishtirokisiz yoki minimal ishtirokida qaror qabul qilish imkoniyati vujudga keldi. Avtomatik yoki masofadan boshqariluvchi transport vositalari, algoritmik savdo platformalari, yuzni tanish tizimlari va generativ SI modellari faoliyati doirasida yuzaga keladigan zararli oqibatlar an‘anaviy jinoyat huquqi dogmatikasining asosiy institutlari bo‘lmish subyekt, ayb, sababiy bog‘liqlik tushunchalari oldida jiddiy nazariy muammolarni kun tartibiga qo‘ymoqda.

Xorijiy doktrinada bu muammo birinchilardan bo‘lib professor Gabriel Xalevi (Gabriel Hallevy, Ono akademik kolleji, Isroil) tomonidan kompleks tarzda o‘rganilgan bo‘lib, u o‘zining mashhur *“When Robots Kill: Artificial Intelligence Under Criminal Law”* nomli monografiyasida ishlab chiqaruvchi, dasturchi va foydalanuvchidan tashqari, aynan sun‘iy intellekt tizimining o‘zini jinoiy javobgarlikka tortish modellarini taklif qilgan [1].

Shveysariya olimlari Monika Simmler va Nora Markvalder esa *“Guilty Robots? – Rethinking the Nature of Culpability and Legal Personhood in an Age of Artificial Intelligence”* asarida ayb (culpability) tushunchasining mohiyatini qayta ko‘rib chiqish zaruratini asoslab berganlar [2]. Xuddi shunday, Xitoy olimi Chjuochjen Duan ilmiy asarlarida kiberjinoyatchilikning SI bilan bog‘liq yangi shakllarini tahlil qilib, javobgarlikning subyektiv tomonini qayta talqin qilish zarurligini ko‘rsatgan [3].

Tarixda bunday voqealar allaqachon sodir bo‘lgan. 1980-yillarda Yaponiyada ishchi sanoat roboti tomonidan o‘ldirilgan. Yaponiyadagi mototsikl ishlab chiqaruvchi zavodda ishlayotgan sun‘iy intellekt bilan boshqariladigan robot yaqinida bo‘lgan xodimni xato ravishda o‘z vazifasiga tahdid sifatida baholaydi. Shundan so‘ng robot ushbu tahdidni bartaraf etishning eng samarali usuli sifatida xodimni yonida ishlab turgan sanoat uskunasi itarib yuborishni hisoblab chiqadi. O‘zining kuchli gidravlik manipulyatori yordamida robot xodimni ishlayotgan uskunaga urib yuboradi, natijada u voqea joyida halok bo‘ladi. Shundan keyin robot hech narsa bo‘lmagandek o‘z vazifalarini bajarishda davom etadi. Bu hodisa keyinchalik olimlar tomonidan *“mashina aybdormi?”* degan savolni birinchi marta jiddiy tarzda kun tartibiga qo‘ygan edi [4]. O‘shandan beri, savol hamon javobsiz qolmoqda, faqat endi *“robot”* o‘rnida o‘zini o‘zi o‘rgatuvchi, inson nazoratisiz qaror qabul qiladigan algoritmlar turibdi.

Muammoning miqyosi esa yildan-yilga keskin ortib bormoqda: tadqiqotlarga ko‘ra, 2024-yilda dunyo bo‘yicha tashkilotlarning 87 foizi sun‘iy intellekt yordamida amalga oshirilgan hujumlarga duch kelgan, SI natijasida firibgarlik orqali ko‘rilgan zarar 2027-yilga borib 40 milliard AQSh dollariga yetishi prognoz qilinmoqda, dipfeyk vositalarining *“qora bozor”*dagi muomalasi esa 223 foizga o‘sgan [5].

Demak, gap endi faqat nazariy mulohaza yuritish haqida emas, balki gap har kuni minglab insonlarga daxldor bo‘layotgan amaliy huquqiy bo‘shliq haqida bormoqda.

So‘nggi uch yil ichida (2023–2026) SI ni tartibga solish borasida bir qator muhim xalqaro hujjatlar qabul qilindi. 2024-yil 13-iyunda Yevropa Parlamenti va Kengashi tomonidan *“Sun‘iy intellekt to‘g‘risida”*gi Reglament (Artificial Intelligence Act) yakuniy tasdiqdan o‘tkazilib, u 2024-yil 1-avgustda kuchga kirdi [6]. Mazkur Reglament jinoiy javobgarlik masalalarini bevosita tartibga solmasa-da, yuqori xavfli SI tizimlariga nisbatan risk-asosli yondashuvni joriy etish orqali jinoyat-huquqiy baholash uchun institutsional asos yaratadi.

2024-yil 5-sentabrda Vilnyus shahrida Yevropa Kengashining *“Sun‘iy intellekt, inson huquqlari, demokratiya va qonun ustuvorligi to‘g‘risida”*gi konvensiyasi - bu sohadagi birinchi xalqaro majburiy kuchga ega shartnoma hisoblanadi [7]. Konvensiya davlatlarni SI tizimlari hayot sikli davomida inson huquqlariga, demokratiya va qonun ustuvorligiga muvofiqlikni ta‘minlashi hamda tavakkalchilikka asoslangan baholash va zarur hollarda SI ning ayrim qo‘llanilishiga taqiq (red lines) joriy etish imkoniyatini nazarda tutadi.

Shuningdek, 2017-yilda Yevropa Parlamenti Huquqiy masalalar qo‘mitasi murakkab avtomatik robotlarga *“elektron shaxs”* (electronic personhood) maqomini berish to‘g‘risidagi taklifni muhokama qilgan edi, ammo bu g‘oya ko‘plab olimlar tomonidan keskin tanqid qilinib, amalda rad etildi [8].

